

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
TILSHUNOSLIK KAFEDRASI

IKROMOVA ZAMIRA

MAVZU: TOHIR MALIK ASARLARINING TIL XUSUSIYATLARI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

ANDIJON – 2014

MUNDARIJA

Bitiruv malakaviy ishning umumiy tavsifi.....

1 BOB. Tilshunoslikda matn lingvistikasi muammosining ilmiy talqini va tadqiq darajasi.....

1.1. Matn – murakkab sintaktik butunlik sifatida.....

1.2. Matnning badiiyligini ta'minlashda lingvistik va ekstralingvistik vositalarning o'rni.....

Bob bo'yicha qisqa xulosa.....

2 BOB. Tohir Malikning fonetik, leksik va grammatik vositalardan foydalanish mahorati.....

2.1. Tohir Malik asarlarida fonetik vositalarning o'rni.....

2.2. Tohir Malikning so'z qo'llash mahorati.....

2.3. Tohir Malik asarlarida grammatik birliklar uslubiy vosita sifatida.....

2.4. Bob bo'yicha qisqa xulosa.....

Umumiy xulosalar.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

BITIRUV MALAKAVIY ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi o‘zbek tilining ravnaq topishiga imkoniyat yaratib berdi. Zero, prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, “Tilimiz, dinimiz, urf-odatlarimizni, ma’naviy qadriyatlarimizni butkul yo‘qotib qo‘yish xavfidan saqlab, asrab-avaylab, ularning azaliy mazmuni va qudratini tiklashga keng yo‘l ochib berildi”.¹

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida lingvopoetik yo‘nalishdagi tadqiqot ishlarini olib borishga e’tibor yanada kuchaydi. Shu sababli til birliklarining semantik strukturasi tekshirish, uslubiy-semantik ma’nolarini chegaralash, bu ma’nolarning nutqda reallashuvida til vositalarining o‘rni belgilash kabi qator masalalar turli ilmiy-tekshirish ishlarining o‘rganish ob’ektiga aylandi. Xususan, muayyan so‘z san’atkorining tildagi fonetik, leksik, morfologik va sintaktik birliklardan betakror uslub yaratish vositasi sifatida foydalanishi, takrorlanmas uslub yaratishdagi o‘ziga xosliklar badiiy matnni stilistik aspektda o‘rganishga qiziqishni oshiradi.

Ma’lumki, T.Malik o‘zbek adabiy-badiiy tili rivojiga katta hissa qo‘shgan yozuvchidir. Ayniqsa, uning asarlarida o‘zbek tilining jozibasi, ohangdorligi, ifodaliligi, ta’sirchanligi turfa lingvistik vositalar yordamida tasvirlab berilgan. Adib asarlari til xususiyatlarining o‘rganilishi o‘ta muhim va o‘ziga xos hodisa ekanligi ishning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida badiiy asar tili muammolari, xususan, bir qancha adiblar badiiy asarlarining lingvopoetikasi masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ko‘lami kengaydi.² Jumladan, M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari” nomli monografiyasining nashr etilishi bu boradagi muammoli masalarning yechilishiga xizmat qildi.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi T.Malikning o‘ziga xos so‘z qo‘llashi, badiiy til mahorati, o‘zbek adabiy tili rivojlanishi uchun qilgan xizmatlarini ko‘rsatishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqotda quyidagi vazifalarni bajarish ko‘zda tutildi:

- tilshunoslikda badiiy matn va uning belgilari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish;
- T.Malik asarlarida matnning badiiyligini ta’minlovchi fonetik, leksik, grammatik vositalarni aniqlash;

¹ Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 71.

² Йўлдошев М. Шу манба; Джалолова Л. Абдулла Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романининг лингвистик таҳқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. - Тошкент, 2007. - 22 б; Шадиёва Д. Муҳаммад Юсуф шеърини лингвопоэтикаси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. - Тошкент, 2007. - 25 б; Келдиёрова Г. Ўзбек бадий нутқида антитеза (Э.Воҳидов шеърини мисолида): Филол. фан. ном. ... дис. автореф. - Тошкент, 2000; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. - Тошкент, 2000.

– fonetik, leksik, grammatik vositalarning asar badiiyligini oshirishga qilgan ta'sirini belgilash;

– T.Malikning so'z qo'llashdagi o'ziga xos mahoratini ochib berish.

Tadqiqotning ob'ekti. Tadqiqotda T.Malikning «Shaytanat», «Eng kichik jinoyat», «So'nggi o'q», «Mehmon tuyg'ular», «Falak», «Davron», «Devona» kabi asarlari tahlil ob'ekti sifatida tanlab olindi.

Tadqiqot metodologiyasi va bajarilish usullari. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida dialektikaning umumiylik-xususiylik, shakl-mazmun tamoyillari tanlandi. Ishda lingvopoetik, uslubiy, qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

– badiiy matn va uning belgilari masalasining o'zbek tilshunosligidagi tadqiq darajasi tahlil qilindi;

– T.Malik asarlarida fonetik, leksik, grammatik vositalarning qo'llanilishi birinchi marta maxsus o'rganildi;

– T.Malikning so'z qo'llashdagi o'ziga xos mahorati ochib berildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, undagi ilmiy xulosalar ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslikning tegishli muammolarini ma'lum ma'noda oydinlashtirishga ko'maklashadi. Tadqiqot materiallaridan filologiya sohasida o'qiyotgan talabalar kurs ishlari yozishda, "Badiiy matning lisoniy tahlili" faniga bog'liq o'quv kurslariga tayyorlanishda qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

BMI xulosalari T.Malik mahoratini ochib beruvchi mavjud lisoniy nazariy fikrlarni boyitishga xizmat qiladi.

Bitiruv ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish kirish, 2 asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat va sahifani tashkil etadi.

1 BOB. Tilshunoslikda matn lingvistikasi muammosining ilmiy talqini va tadqiq darajasi

Ma'lumki, tilning markaziy, yetakchi vazifasi – kommunikativ vazifadir. Har qanday nutqiy kommunikatsiyaning yuzaga kelishida, voqelanishida esa uch asosiy unurning ishtiroki majburiydir, ya'ni s'yzlovchi (yozuvchi) – axborot (matn) – tinglovchi (y'quvchi). Ularning birortasisiz muloqot jarayoni voqe b'ylolmaydi³.

Tinglovchiga ma'lum axborotni yetkazish maqsadi nutq jarayonini yuzaga keltiradi. Tabiiyki, aynan shu s'yzlovchi va tinglovchi y'rtasidagi «oldi-berdi»ning lisoniy ifodalanishi va anglanishi birinchi darajali e'tiborni tortadi.

Tilda aloqa-aralashuv vositalari ichida an'anaviy eng katta birlik hisoblangan gapdan ham yirik qurilmalar mavjud b'ylib, ular murakkab sintaktik butunliklar deb nomlanadi. Masalan, *Jahongir mana shularni o'ylab diqqati oshdi. (T. Malik)* gapini mutlaqo mustaqil kommunikativ birlik deb b'ylmaydi. Ushbu gapning mazmunini t'yg'ri anglash uchun undan oldingi gapda (yoki gaplarda) sub'ektning salbiy emotsional holatiga sabab b'ylgan voqea – hodisalar aks etmog'i lozim.

Demak, yuqoridagi gapning mazmunini t'yliq va t'yg'ri anglash matn qurshovini talab qiladi. Shunday amaliy ehtiyoj «matn lingvistikasi» deb ataluvchi y'ynalish paydo b'ylishiga sabab b'yladi.

Matn nazariyasi, matn lingvistikasining umumiy shakllanishi va rivojida chex (Praga lingvistik t'yg'aragi vakillari), nemis, fransuz, ingliz, Amerika, golland, rus, polyak va boshqa tilshunoslik maktablari vakillarining xizmatlari katta.

O'tgan asr 60-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab matn lingvistikasi tez sur'atlar bilan rivojlanish pallasiga kirdi. Unga b'ylgan qiziqish ortishiga, umuman, matn lingvistikasining mustaqil fan sifatida e'tirof etilishiga asos b'ylgan qoidalar ham umumlashtirildi:

1. Nutqning tugallangan fikr bildiradigan asosiy birligi gap emas, balki matndir; gap – fikr faqat xususiy holat, matnning alohida turidir. Matn sintaktik sathning oliy birligi hisoblanadi.
2. Konkret nutqiy asarlar – matnlarning asosida matn tuzishning umumiy tamoyillari yotadi; bu tamoyillar nutq sohasiga emas, balki til sistemasiga yoki til vakolatiga daxldordir. Bu jihatlar hisobga olinsa, shulardan kelib chiqilsa matnni faqat nutq birligigina emas, balki ayni paytda til birligi deb ham hisoblash kerak.
3. Boshqa til birliklari kabi matn lisoniy belgilar sistemasining qismidir.
4. Matnni alohida sathning nutqiy va lisoniy birligi sifatida har tomonlama y'rganish tilshunoslik doirasidagi fan – matn lingvistikasini yaratishni taqozo etadi⁴.

³ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. Монография. –Т. 2008.

⁴ Москальская О. И. Грамматика текста. – М.: Высшая школа, 1981.

O'zbek tilshunosligida ham matn va uning tadqiqiga bag'ishlangan talay ishlar qilingan.⁵ Xususan, M. Y'ldoshev tomonidan badiiy matnning mazmuniy turlari hamda intertekstuallik muammosi tasnif va tavsif qilindi, badiiy matnning lingvopoetik tahlili tamoyillari ishlab chiqildi, uning shakllanishida ishtirok etuvchi omillar monografik planda y'rganildi⁶.

1.1. Matn – murakkab sintaktik butunlik sifatida

Tilshunoslikda matnning umume'tirof etilgan ta'rifi borasida qarama – qarshiliklar bor. Xususan, uning og'zaki yoki yozma shaklda b'ylishi haqida qarashlar turlicha. Ayrim tilshunoslar matn yozma shaklda b'ylishi uning belgilari orasida eng asosiysi ekanini ta'kidlaydilar (L. Loseva, I. Galperin, Z.Turaeva). Boshqa guruh olimlari esa matn faqat grafik, yozma shakldagina emas, balki og'zaki shaklda ham namoyon b'yladigan nutqiy asar ekanligini e'tirof etadilar. (Masalan, R.Karimova, M.Y'ldoshev, A.Hojiev). Qayd etish kerakki, kishilar y'rtasidagi aloqa – kommunikatsiya faqat yozma shaklda amalga oshishi mumkin emasligi ikkinchi fikrni asoslaydi.

Matnga berilgan xilma – xil ta'riflarning deyarli barchasida bog'lanishlilik va yaxlitlik belgisi y'z ifodasini topgan b'ylib, tilshunoslar bir – biri bilan hech qanday aloqasi b'ylmagan gaplarni bir butunlik tarzida birlashtirib b'ylmasligini qayd etadilar.

Shunday ekan, **matn** – hamma elementlari y'zaro zich aloqada b'ylgan va avtor nuqtai nazaridan ma'lum bir maqsadga y'ynaltirilgan nominativ – estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma⁷; gaplarning og'zaki yoki yozma shaklda yuzaga keladigan struktur, mazmuniy va kommunikativ yaxlitligi tarzidagi butunlik, til sintaktik sathining oliy darajadagi birligidir⁸.

1.2. Matnning badiiyligini ta'minlashda lingvistik va ekstralingvistik vositalarning o'rni

Kishilar y'rtasidagi aloqa – kommunikatsiya og'zaki nutqdan tashqari matnlar vositasida amalga oshar ekan, matn tuzuvchi tegishli badiiy yoki nobadiiy matn tipini tanlaydi.

Tilning kommunikativ vazifasi bilan birga estetik vazifasi haqida ham to'xtalish lozim. Chunki, sy'zlovchi y'z fikrlarini qanday ifodalash, tinglovchiga aniq yetkazib berishni y'ylaydi,

⁵ Каранг: Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Т. 1987; Тухсанов М. Микротекст и система выражения его когерентности в узбекской художественной речи: Автореф. дисс...к-та филол. наук - Т. 1987; Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Т. 1989; Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Фил. фан. ном ...дисс. – Т. 1993. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талкини: Филол. фан. д-и ...дисс. – Т. 2001.

⁶ Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоетик тадқиқи. ДДА. – Т. 2009.

⁷ Киличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро, 2000.

⁸ Йўлдошев М. Курсатилган манба. Б – 61.

buning uchun yziga xos usul tanlaydi. Aynan shu jarayonda tilning estetik vazifasi yuzaga chiqa boshlaydi.

Badiiy matnda muallifning yquvchi yoki kitobxonga estetik ta'sir qilish maqsadi birinchi planda tursa, nobadiiy matnda muallifning asosiy maqsadi yquvchi yoki kitobxonga kommunikativ ta'sir qilishdan iborat blyadi. Boshqacha qilib aytganda, nobadiiy matnda muayyan axborotning mazmuni va uning ifodasi birlamchi blysa, badiiy matnda bunday axborot birlamchi emas, balki shu axborot vositasida aytilmoqchi blygan fikr – g'oyaning estetik ta'sirli ifodasi mutlaqo hal qiluvchidir. Tilshunos olim M.Yyldoshev bu xususdagi N.Mahmudov, R.Budagov, Yu.Rojdestvenskiy va boshqalarning fikrlarini umumlashtirib shunday yozadi: «Tilning estetik vazifasi ...tinglovchida his – tuyg'ularni qyzg'atishga xizmat qiladigan vazifadir». Badiiy matnlarda tilning estetik vazifasi birinchi planda tursa – da, ifodalanayotgan fikr, ya'ni kommunikativ vazifa ham e'tibordan butunlay soqit qilinmaydi. Shularni nazarda tutgan olim fikrini davom ettiradi: «Tilning estetik vazifasi badiiy matnda kommunikativ vazifaning ustida «ytiradi», shuning uchun estetik vazifa yaqqol ky'rinib turadi, kommunikativ vazifa esa uning ostida ky'zga tashlanmasdan ishtirok etadi».⁹ Demak, badiiy matn tahlilida uning estetik (turli adabiyotlarda «ekspressiv», «stilistik», «poetik» va hok.) vazifasi markaziy e'tiborni talab qiladi.

Badiiy matn ifoda imkoniyatlari va usullarining rang – barangligi, yziga xosligi va betakrorligi uning ta'sirchanligini ta'minlaydi. Matnning badiiyligini ta'minlashda ijodkor yz badiiy niyatiga muvofiq ravishda ifoda imkoniyatlaridan istaganini tanlaydi. Bunday imkoniyat esa tilning barcha sathlarida mavjud.

Matnning badiiyligini ta'minlovchi vositalarni ikkiga blyish mumkin:

1. Lisoniy (lingvistik) vositalar.
2. Nolisoniy (ekstralingvistik) vositalar.

Lingvistik vositalarga fonetik, leksik, morfologik, sintaktik vositalarni kiritish mumkin.

Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, xafa blyish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatq, olqish, so'roq, ta'kid, norozilik, tilak – istak, qo'llab – quvvatlash kabi holatlarni yozuvda ifodalashda fonografik vositalardan foydalaniladi¹⁰.

She'riyatda, asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni chyzish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, syzlarni notyg'ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi.

Tilning leksik sathini tashkil qiluvchi syzlar atash, nomlashdan tashqari syzlovchining shaxsiy munosabatini ifodalashga ham xizmat qiladi. O'ziga xos sintaktik qurilishga ega

⁹ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. Монография. –Т. 2008. Б – 99.

¹⁰ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Т. 2007. Б – 42.

s'yzlashuv nutqida esa, ritorik s'yroq gaplar, s'yz tartibining y'zgarishi, takror natijasida ham ekspressivlik ortadi.

Nolisoniy omillarga esa imo – ishora va hatti – harakatlar kiradi. Nutqimiz orqali ifodalangan axborotdagi kamchiliklarni jest, imo – ishoralar va mimikamiz orqali t'yldirishimiz mumkin. Bu vositalar zarurat tug'ilgandagina yozma nutqqa k'ychiriladi. Masalan: *Manzura: «Kerakmas, ichmayman»*, *deganday bosh chayqadi* («Shaytanat») gapini olaylik. Ushbu gapda Manzura buni og'zaki ravishda bayon etmagani holda hatti – harakati orqali uning hech narsa ichishni xohlamasligi, istamasligi ifodalangandir.

Bob bo'yicha qisqa xulosa

Badiiy matnning mazmunini idrok etish uchun uning leksikasi va grammatikasini bilishdan tashqari, badiiy matnning o'ziga xos lisoniy – poetik qonuniyatlarini ham bilish lozim. Ma'lum bir so'z san'atkorining asarda g'oyaviy – estetik vazifani ta'minlash yo'lidagi tilning boy imkoniyatlaridan foydalanishdagi individual mahorati lingvopoetik tahlilga qiziqishni oshiradi.

Kishilar o'rtasidagi aloqa – kommunikatsiya og'zaki nutqdan tashqari matnlar vositasida amalga oshar ekan, matn tuzuvchi tegishli badiiy yoki nobadiiy matn tipini tanlaydi.

Tilning kommunikativ vazifasi bilan birga estetik vazifasi haqida ham t'yxtalish lozim. Chunki, so'zlovchi o'z fikrlarini qanday ifodalash, tinglovchiga aniq yetkazib berishni y'ylaydi, buning uchun y'ziga xos usul tanlaydi. Aynan shu jarayonda tilning estetik vazifasi yuzaga chiqa boshlaydi.

Badiiy matn ifoda imkoniyatlari va usullarining rang – barangligi, o'ziga xosligi va betakrorligi uning ta'sirchanligini ta'minlaydi. Matnning badiiyligini ta'minlovchi vositalarni ikkiga bo'lish mumkin:

1. Lisoniy (lingvistik) vositalar.
2. Nolisoniy (ekstralingvistik) vositalar.

2 BOB. Tohir Malikning fonetik, leksik va grammatik vositalardan foydalanish mahorati.

2.1. Tohir Malik asarlarida fonetik vositalarning o‘rni

Fonetik birliklarning uslubiy imkoniyatlaridan asarning badiiyligini ta’minlashda keng foydalanish mumkin. Bunda, ayniqsa, ohang muhim rol o‘ynaydi. Ohangning vazifalaridan biri so‘zlovchining voqelikka bo‘lgan munosabatini ifodalash, shu jumladan ma’no kuchaytirish, bo‘rttirishdir. Bu haqda tilshunos olim A. Abdullaevning ishlarida atroflicha ma’lumot berilgan.¹¹

Nutqda fonetik usul bilan yuzaga chiqadigan ustama ma’noli so‘zlarni kuzatish mumkin. Bunday fonetik vositalar nutqning ohangi va mazmun talabidan kelib chiqib, tabiiy ravishda talaffuz qilinadi:

a) unlini cho‘zish vositasida ma’noni kuchaytirish:

*O‘n so‘m o‘marsam yettisi seniki edi. Sen **ye-eb** yotarding.* («Shaytanat»)

Ushbu gapda unlini ch‘y‘zish orqali harakatning davomiyligini ifodalash orqali s‘yzlovchining suhbatdoshiga nisbatan salbiy munosabati, ya’ni pichingi ifodalanganini k‘yrishimiz mumkin. Shuningdek, ana shu sub’ektiv munosabat orqali «*Sen yeyishdan boshqa hech narsa qilmasding*» yashirin axboroti ham ifodalangan.

v) undoshni qavatlash vositasida:

*Sen yig‘lasang ular **mazza** qilib kuladilar.* («Shaytanat»)

Bu gapda **mazza**, so‘zidagi **z** undoshi og‘zaki nutqda ikkita undoshdek talaffuz qilinadi va shu yo‘l bilan ma’no kuchayadi.

Nasrda unlilarni ch‘y‘zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, s‘yzlarni noty‘g‘ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta’minlanadi.

Tovushlarni uslubiy q‘y‘llash bilan bog‘liq qonuniyatlarni yozuvda aynan aks ettirish uchun fonografik vositalardan foydalaniladi.¹²

T. Malik asarlarida fonografik vositalar alohida y‘rin tutadi. Buni misollar orqali kuzatamiz:

1. – *Mening jonim ollohning omonati. Lozim b‘ylsa omonatni sizning qilichingiz bilan oladi.*

Ulug‘bek kulimsirab bosh chayqadi:

***Y‘y** – **y‘q**... *Qilichim qonsiragan emas.* («Falak»)*

2. *Sog‘ odamlar bilan ham **bi** – **ir** otamlashing...* («Shaytanat»)

¹¹ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлининг ифодаланиши. -Тошкент. 1987. – Б.8.

¹² Ёўлдошев М. Кўрсатилган манба. – Т. 2007. – Б. 41.

Birinchi gapda unlini chýzish xitob, ta'kid ma'nolarini yuzaga keltirish vositasi býlib xizmat qilgan. Ikkinchi misolda esa, harakatning davomiyligi, samimiyligi, o'zaro yaqinlik kabi ma'no munosabatlari ifodalanganligini kýrishimiz mumkin. Qiyoslang:

*Sog' odamlar bilan ham **bir** otamlashing // Sog' odamlar bilan ham **bi-ir** otamlashing.*

Ko'rinadiki, ikkinchi gapdagi samimiylilik, o'zaro yaqinlik kabi ma'no nozikliklari birinchi gapda kuzatilmaydi.

Yozuvchi shuningdek, sýzlovchining salbiy munosabatini ifodalash maqsadida unlilarni chýzish usulidan foydalangan:

– *Qo'llaringdan hech balo kelmasa, nima qilib yuribsanlar do'xtirman, deb **kerili-ib?*** («Shaytanat») Ushbu gapda harakatning davomiyligi va kinoya ma'nolari bor. Shuningdek, so'zlovchining unlini cho'zib talaffuz qilishi sub'ektiv baho (salbiy) munosabatini ifodalashga ham xizmat qilgan.

Yana:

*«Xumkallaga tilla berdingizmi, **ja-a** og'zi qulog'ida, - dedi u yaltoqlanib»* («Shaytanat») gapida esa unlini chýzish orqali sýzlovchining voqelikning, ya'ni xursandchilikning me'yordan oshiqqligini, shuningdek, sub'ektiv hayratlanish munosabati ham ifodalangan.

Unlini cho'zib talaffuz qilish so'zlovchining voqelikka norozilik munosabatini ifodalash uchun ham qo'llaniladi:

O'ylab ko'rib, bir qarorga kelaman.

***Yo' – o'q**, azizim, bunuqa anarxiya ketmaydi. Birga j'ylab, birga qaror qilamiz.*

Orfoepik me'yor býyicha bir undosh talaffuz qilinishi kerak býlgan sýzlar muayyan vaziyatlarda ekspressiya va estetik maqsad talabi bilan qavatlab talaffuz qilinadi. Bu sýzlovchining ichki ruhiyati, va maqsadini kitobxonga «aynan» yetkazish imkonini beradi.¹³

T.Malik asarlarida undoshlarni qavatlash usulidan ham keng foydalanilgan. Masalan:

*Tajribani to'xtatishga **haqqing** yo'q!* («Falak») gapida «q» fonemasining geminatsiyaga uchrashi qahramonning holati: qat'iylilik, cho'rtkesarlik kabi xususiyatlarini va voqelikka sub'ektiv munosabati: noroziligini ifodalashga xizmat qilmoqda.

Ayrim o'rinlarda undosh tovushlarni qavatlash orqali so'zlovchining muayyan voqelikka, predmetga baho munosabatini ham ifodalaydi.

Masalan: *Endi toychoq demasangiz ham bo'ladi. Ot bo'lib qoldi. Ozgina **eshshakligi** ham bor-u lekin sizning hurmatingizni qilib «ot» desak ham bo'lar.* («Shaytanat»)

Ushbu gapda «sh» geminatsiyasi orqali sýzlovchining ob'ektga býlgan salbiy munosabati ifodasini topgan. Shuningdek, ushbu gap tahlilida eshak sýzining konnotativ ma'nolarini hisobga olmoq darkor.¹⁴

¹³ Йўлдошев М. Ўша асар. 43-бет.

Undoshlarni qavatlash hodisasi nafaqat soʻzlovchining voqelikka munosabatini, balki soʻzlovchining oʻz xarakter-xususiyatini ochib berishga ham xizmat qiladi:

Anhor boʻyini gaplash. Tuzukroq qorilarni aytir.

— *Qorilarning xoʻrrozini toptiraman.* («Shaytanat»)

Bu oʻrinda qahramonning xarakteridagi yziga ishonch, manmanlik, gʻurur kabi ichki tuygʻulari undoshlarni qavatlash yordamida berilgan.

Xullas, T.Malik asarlarining badiiyligini oshirishda fonetik va fonografik vositalarning oʻrni beqiyos.

2.2. Tohir Malikning soʻz qoʻllash mahorati

Badiiylilik har qanday adabiyotning bosh mezonini boʻlib, u adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan oʻrganiladi. Tilshunoslar yozuvchining mahoratini, asar badiiyligini baholashda asar tilini tilshunoslik nuqtai nazaridan oʻrganganda, u mavzu va gʻoyadan uzib olingan holda tahlil qilinadi. Shu sababli tilshunoslar badiiy asar tiliga oid ilmiy asarlarda eskirgan, tarixiy; yangi, koʻp maʼnoli syzlar, sinonimlar, omonimlar, antonimlarga eʼtibor beradilar. Zero, badiiy adabiyot tili oddiy til emas, obrazli nutqning yuzaga chiqishiga xizmat qiluvchi til sanaladi. Badiiy tilda emotsionallik, serqatlamlilik, obrazlilik, musiqiylik, serboʻyoqlik, ixchamlilik bor. Leksik vositalarni tahlil qilishda yozuvchi mahoratining ana shu qirralariga eʼtibor qaratilsa ayni muddao boʻlar edi.

Ming yillik adabiyotimiz tarixida tilimizning bepoyon imkoniyatlarini oʻzida xolis tajassum etgan badiiy asarlar benihoya koʻp. Yurtimiz istiqloli bu yoʻldagi barcha noyob isteʼdod egalarining iqtidorini yuzaga chiqarishni til va adabiyot sohasi vakillari oldiga ulkan vazifa sifatida yukladi.

Badiiy til bobida benazir ibrat maktabini yaratgan T.Malikday adib asarlarining tili hozirga qadar lingvopoetik nuqtai nazardan qisman oʻrganilgan boʻlsa-da, bu hali adibning mahorati ochib berilganligini koʻrsatmaydi. Har qanday chinakam isteʼdod egasi kabi T.Malik ham oʻzbek tilining estetik vazifasini nechogʻli mukammal va serjilo ekanligini isbotlab berdi. Keng ommaga tushunarli boʻlgan oʻzbek adabiy tilini shakllantirish, uni jonli tilga yaqinlashtirish adib oldiga qoʻyilgan eng asosiy maqsadlardan biri boʻlsa, bu maqsad toʻlaligicha amalga oshdi, desak mubolagʻa boʻlmas. Bunday hissani qoʻsha bilmoq uchun ijodkor bu til tarixini, lugʻaviy zahirasiining asos manbalarini, maʼno-mazmunini chuqur egallagan boʻlmogʻi

¹⁴ Коннотация хакида каранг: Ревзина О. Г. О понятии коннотации // Языковая система и её развитие во времени и пространстве: Сборник научных статей к 80-летию профессора Клавдии Васильевны Горшковой. — М.: Изд-во МГУ, 2001; Говердовский В. И. История понятия коннотации // Науч. докл. высш. шк. филол. науки. — 1979. — №2.; Телия В. Н. Коннотативный аспект семантики номинативных едениц. —М. 1986; Мамадалиева М.А. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. -Тошкент. 1997.

lozim. T.Malik xalqning tabiatini, tarixini, urf-odatlarini, millatning bosh belgisi hisoblanmish tilini faqat kitoblardan emas, balki xalqning o'zidan oldi va uni yana xalqning o'ziga noyob san'at asari sifatida qaytardi. Shuning uchun adibning «Mehmon tuyg'ular», «Shaytanat», «Odamiylik mulki», «Talvasa», «Iblis devori», «Devona» kabi asarlarida o'zbek tilining betakror salohiyati, tuganmas ifoda imkoniyatlari aks etgan.

Aminmizki, T.Malik tilining sintaktik qurilishidagi o'ziga xosliklarni o'rganish orqali go'zal tilimizning bor imkoniyatini yanada teran anglashimiz mumkin bo'ladi.

T.Malik o'zining barakali ijodi bilan o'zbek adabiy tilining rivoji va boyishiga jiddiy hissa qo'shgan hassos adibdir. Uning asarlarida o'zbek tilining boyligi, go'zalligi, tuganmas ifoda imkoniyatlari o'zini to'liq namoyon etgan. Bu asarlarni o'qiganda, mahoratli adibning o'zbek xalqi xazinasini nechog'li tugal egallaganligiga, betakror so'z ijodkori sifatida bu xazinadagi unsurlarni o'z badiiy niyatiga muvofiq tarzda saylay bilganiga, tildagi tovlanishlariga yanada sayqal-u jilo bera olganiga, bu birliklardagi ma'no injaliklaridan juda ustalik bilan foydalana olganiga takror va takror amin bo'lmoq va hayratlanmoq mumkin.

Nazm-til, xususan, so'z o'zining butun ifoda imkoniyatlarini, ohang-u musiqasini ham, ma'no tovlanishiyo injaliklarini ham, turfa munosabat-u harakatini ham namoyish eta oladigan sinoatli sahna. Bu sahnaning mohir san'atkori bizning ming yillik adabiyotimizda behisob bo'lib, ularni qadimgi Movarounnahru Xurosonning pokiza osmonidagi mangu yarqiroq yulduzlarga mengzash mumkin. Tayinki, bu yulduzlar silsilasida T.Malikning alohida o'rni bor.

Albatta, nazmda so'z, ohang va ma'no raqsi uchun imkonlar so'ngsiz. Ammo nasrda bu imkoniyatlar nazmga nisbatan unchalik katta emas. Shunga qaramasdan, T.Malik nasrda ham ayni imkoniyatlarni mukammal va muntazam topa bilgan, ularni ishga sola olgan ulkan so'z ustasidir. Biz ushbu kichik ilmiy tadqiqotimizda yozuvchi tilning ayrim imkoniyatlaridan qay darajada mohirlik bilan foydalanganligi to'g'risida so'z yuritmoqchimiz.

Ma'lumki, ma'nodosh sy'zlar tilning boyligini, ta'sirchanligini belgilovchi muhim birliklardan sanaladi. Sinonimik qatordan y'rin olgan har bir sy'z nutqda y'ziga xos uslubiy vazifaga ega. Nutqda sinonimlardan y'rinli foydalanish fikrni yorqin, aniq ifodalash imkonini beradi, aksincha, ulardan noty'g'ri foydalanish nutq g'alizligini, uslubiy xatolarni yuzaga chiqaradi. Sy'zlovchi tashqi nutqqa tayyorlanar ekan, y'z ichki nutqida vaziyat elementlarini ifodalovchi ma'nodosh sy'zlar qatoriga terib chiqadi. Uning so'z tanlash darajasi lug'at boyligi, bilimi, nutqiy malakasi asosida belgilanadi.

Yozuvchi T. Malik ham tildagi ma'nodosh sy'zlarni qo'llashda ularning ma'no nozikliklarini nazardan qochirmagan holda o'ta did bilan tanlaydi. Uning sy'z qy'llash mahoratini misollar asosida kuzatamiz: *Tashqarida yomg'ir sevalay boshlagan edi. («Falak»)*

Ushbu gapda *yog‘moq* fe‘li *yrniga sevalamoq* sʻyzidan foydalanilgan. *Sevalamoq* sʻyzi *yomg‘irning* mayda – mayda holda uzoq vaqt *yog‘ishini* tasvirlash maqsadida qʻyllangan bʻylib, bu *yrinda yog‘moq* fe‘li ayni jarayonni tʻyliq ochib bera olmasdi. Qiyoslang: *Tashqarida yomg‘ir sevalay boshlagan edi // Tashqarida yomg‘ir yog‘a boshlagan edi.*

Kʻyrinadiki, ayni sʻyz shu vaziyatga mos holda uning *yog‘moq, sevalamoq, sharros quymoq* kabi maʼnodoshlari qatoridan mohirlik bilan tanlab olingan. T. Malik asarlarida bu kabi misollarni kʻyplab kuzatish mumkin:

1. *Oqsoqol unga qarab **ishshaydi.*** («*So‘nggi o‘q*»); 2. *Ovozini baralla qʻyib **xaxoladi*** («*Falak*»).

Ushbu gaplarda bir semantik paradigmani hosil qiluvchi *kulmoq, tirjaymoq, jilmaymoq, ishshaymoq, xaxolamoq* sʻyzlari qatnashgan. Birinchi gapda muallif *ishshaymoq* salbiy boʻyoqdor soʻzi orqali oʻz subʼektiv baho munosabatini ifodalagan. Chunki bu soʻzda «mazax», «kesatish» qoʻshimcha semalari bor.

Ikkinchi gapda yozuvchi qahramonning ruhiy va jismoniy holatini aynan tasvirlash maqsadida *kulish* harakatini *xaxolamoq* sʻyzi bilan ifodalagan. Gapda shu sʻyzning ayni vaziyatga mosligi harakat tarzini ifodalovchi *baralla qo‘yib* sʻyzshakli bilan semantik jihatdan toʻldirilgan.

Yana boshqa misolga diqqat qilaylik:

*Zohid Hamdamdan ilmoqli gap eshitib, qalb yarasi tatalangach, **yzining yog‘iga yzi qovrilib yurdi.*** («*Shaytanat*») gapida qahramonning emotsional holatini tasvirlashda «*siqilmoq*», «*ezilmoq*» soʻzlarining frazeologik sinonimi tanlangan va bu bilan matnning taʼsirchanligi taʼminlangan.

Bu kabi misollarni yozuvchi asarlarida kʻyplab uchratish mumkin. Masalan:

...Bu noxush xabardan mutaassir bo‘lmadi («Eng kichik jinoyat»)

Ushbu gapda *mutaassir bo‘lmadi* fe‘li *ta‘sirланmadi, xafa bo‘lmadi* maʼnolarida qoʻllangan boʻlib, yozuvchi mumtoz adabiyot namunalarida keng qoʻllaniluvchi ayni shu soʻzni tanlagan. Bu orqali adib nafaqat gapning badiiyligini taʼminlagan, balki soʻzlovchining nozik ichki his-tuygʻuli shaxs ekanligini ham shu feʼl orqali ifodalagan.

Jahongir yoshligida ham jikkak edi. («*Falak*»)

Ushbu gapda *jikkak*¹⁵ sifati oriʻq, *ozg‘in* kabi maʼnodoshlari orasidan tanlab olingan bʻylib, ular *yr*tasida nozik maʼno farqlari bor. Ayni vaziyatda *oriʻq* yoki *ozg‘in* sʻyzi jumlani gʻaliz qilmasa – da, *jikkak* sifati subʼekt haqidagi tasavvurni ravshanlashtiradi.

Shuningdek T. Malik asarlarida arxaizm va istorizmlar matn badiiyligini taʼminlashga, asar voqealari boʻlayotgan davrni toʻla-toʻkis ochib berishiga xizmat qiladi:

¹⁵ Жиккак – жуссаси кичик, ихчам; Озгин – эти қочган, этдан тушган; ориқ. (Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М. 1981.)

1. *Ayniqsa tabobat ilmi fuqaroning ofiyati uchun zarur.* («Falak») (*Ofiyat*¹⁶ (a) esk. kt. sog‘liq; sog‘-salomatlik)

2. *Xyʻsh, Abdulvahob, sen bu kulohu jandani qay maqsadda kiyib eding?* («Falak») (*Kuloh*¹⁷ [f-t] Qalandar, darveshlar kiyadigan uchli qalpoq; *Janda*. Darvesh va qalandarlarning uloq-quroq to‘ni)

Birinchi gapda ijodkor arxaizm, ikkinchi gapda esa istorizm qyʻllash orqali asarda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlashga, unga tarixiy ruh berishga erishgan.

Dialektal leksika. Badiiy adabiyot tilining boyligi uning lug‘at tarkibida turli xil leksemalarning miqdor jihatdan ko‘pligi hamda ma‘no doirasining kengligi va torligiga qarab ham o‘lchanadi. Demak, badiiy adabiyot tili nafaqat adabiy til doirasidagi so‘zlar orqali shakllanar ekan, balki noadabiy leksik birliklar ta‘sirida ham rivojlanib boradi.

Noadabiy qatlam haqida gap borar ekan, avvalo, har bir ijodkor ko‘pgina hollarda adabiy me‘yorni chetlab o‘tishga e‘tiborni qaratadi. Shu sababdan, mashhur fransuz tilshunos olimi Sharl Balli va akademik V.V. Vinogradovlar badiiy adabiyot tilida adabiy me‘yorga xos bo‘lmagan umumadabiy til me‘yorlarini chetlab o‘tuvchi leksemalar ham mavjudligini ta‘kidlaydi. K.S.Gorbachevichning ta‘kidlashicha, yozuvchilar xayotni aniq tasvirlash maqsadida turli adabiy bo‘lmagan so‘z va so‘z shakllari va matn talab qtlgan ifodalardan foydalanish maqsadida adabiy me‘yorni chetlab o‘tadi.¹⁸ Demak, yozuvchilar hayotiy voqealarni to‘g‘ri talqin etish uchun nafaqat adabiy me‘yorga xos leksemalardan, balki noadabiy til unsurlaridan ham foydalanishga e‘tiborni qaratdi. Tohir Malik ham ko‘pgina o‘rinlarda adabiy tilni chetlab o‘tishga majbur bo‘lgan. Yozuvchi ijodida ana shunday noadabiy til vositalaridan biri dialektizmlardir. Binobarin, dialektizmlar – umumxalq tilining ajralmas bir qismi bo‘lib, asosan jonli so‘zlashuv nutqiga xos leksemalar xisoblansa-da, ulardan badiiy adabiyot tilida foydalanishga ham e‘tibor qaratiladi. Ko‘pgina tilshunoslikka oid tadqiqotlarda dialektizmlar umumxalq doirasidagi nutq turi sifatida qaralib kelingan va adabiy til me‘yoriga mos kelmasligi tufayli adabiy nutqda chegaralangan holatlarda qo‘llanilishi haqida fikrlar yuritilgan. Dialektizmlardan badiiy asarda turli xil maqsadlarda foydalaniladi. Ayniqsa, ularning uslubiy vazifa bajarib kelishi badiiy asar tilining boy va jozibador bo‘lishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ular adabiy tilning funksional nutq doirasiga o‘tadi, o‘sha uslubga mos va emotsional bo‘yoq oladi.

Badiiy adabiyot tilini boyituvchi vositalar talaygina. Xususan, badiiy tilning boyib borishi va uning taraqqiy etib turishida og‘zaki nutqqa xos leksemalarning ahamiyati katta.

¹⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М. 1981.

¹⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М. 1981.

¹⁸ Горбачевич К.С. Норма современного русского литературного языка. –М., 1978. –С.22.

Odatda og‘zaki nutq leksikasi badiiy asar tilining shunday bir ko‘rinishiki, u har qanday asarning badiiy-estetik ta’sirchanligini uyushtiradi. Ayni chog‘da, og‘zaki nutqqa xos lug‘aviy vositalar badiiy tilning ta’sirchan, jozibador bo‘lishini ham ta’minlaydi. Bu bevosita Tohir Malikning ham ijod xarakteriga xos holatdir. Bunday holatlarning ayrimlari xususida o‘z fikrimizni “Shaytanat” asari misolida bildirmoqchimiz. Asarda, asosan, Toshkent va Farg‘ona shevalariga duch kelamiz. Masalan: “Adasi siz keyinroq kelarsiz” degan taklif hamda qaytmoqlik ahdini ma’lum qilib qo‘yish niyatida edi. (“Shaytanat”)

Ushbu gapdagi “adasi” so‘zi Toshkent shevasiga oid bo‘lib, adabiy tilda “dadasi” shaklida bo‘lishi lozim.

“Yangam telpon qilganmishlar” (“Shaytanat”)

Bu gapdagi “yangam”, “telpon” so‘zlari adabiy nutqimizdagi “kelinoyi”, hamda ona tilidan o‘zlashgan “telefon” so‘zlarining omma orasida keng tarqalgan shevaga oid ko‘rinishidir. Ya’ni “yanga” so‘zi Toshkent shevasiga oid so‘zdir. “Telpon” so‘zida fonetik jihatdan o‘zgarish sodir bo‘lyapti.

Hosilning bollari tinch yurishibdimi? (“Shaytanat”)

- Bu gapdagi bollar so‘zi adabiy tildagi “bolalar” so‘zining burilgan shaklidir.

Yurtimizning juda ko‘p hududlarida bu so‘z deyarli ana shunday tarzda qo‘llaniladi.

Mana moshina, - dedi Moshtabib eshik yaqinida turgan ko‘k “Jiguli” ni ko‘rsatib.
(“Shaytanat”)

Bu gapdagi moshina so‘zi rus tilidan adabiy tilimizga kirib kelgan “Mashina” so‘zining buzib talaffuz etilishidir. Bu yerda so‘zlar fonetik jihatdan farq qilyapti.

Bir-ikkita zo‘r ishlarni mo‘ljallab qo‘ygan ekan, o‘zing billalashib yuritasan.
(“Shaytanat”)

Bu gapdagi billalashib so‘zi ham Toshkent, Andijon, Farg‘ona shevasiga oid. Adabiy tildagi “birgalashib” so‘zining buzib talaffuz qilinishi natijasidir. Bu yerda ham so‘zlar fonetik jihatdan farqlanyapti.

Ular qimorvozlarni yomon ko‘rishadi. (“Shaytanat”)

Gapdagi qimorvoz so‘zi “qimorboz” so‘zining buzilgan shaklidir.

Tortinmay aytovring, qanaqa hizmat? (“Shaytanat”)

Bu gapdagi aytovring so‘zi adabiy tildagi “aytavering” so‘zini shevaga oid ko‘rinishidir.

- *Bratanga etganmiza, qayoqdan olganuvzani, - dedi.*

- *Bir xil paytda man borardim, bir xil paytda u borardi, bir xil paytda ikkalavuza borardik.*

- *Vey bratan, man o‘zim borganman.*

Soqqa yo‘g‘idi, qarzga bergan.

- *Ha-de, bilib turib so'ruvrasizmi?*

Ushbu gaplarda qo'llanilgan etganmiza, olganuvzani, man, ikkalavuza, yo'g'idi, so'ruvrasizmi so'zlari Toshkent shevasiga oid bo'lib, "aytgan elik", "olganimizni", "men", "ikkalamiz", "yo'q edi", "so'rayverasizmi" so'zlarining buzib talaffuz etilgan ko'rinishidir.

"Sharif akamgila xat berib yubordila" dedi. ("Shaytanat")

Bu gapdagi akamgila so'zi Toshkent shevasiga oid bo'lib, "akamlar" so'zining bulib talaffuz qilishi oqibatida paydo bo'lgan.

Vohma qilmang-e azizim. ("Shaytanat")

Bu gapdagi vohma so'zi adabiy tildagi "vahima" so'zining buzilgan ko'rinishidir. Bu so'z Toshkent shevasiga oid so'zdir.

Kep qosa, adangni topsin. Ish zaril! ("Shaytanat")

Gaplardagi kep qosa, zaril so'zlari ham adabiy tilning buzilgan shakli bo'lib, bu yerda fonetik o'zgarish sodir bo'lyapti. Adabiy tilda bu so'zlar "kelib qolsa", "zarur" shaklida beriladi.

Kelsalar nima nima deb qo'iy? ("Shaytanat")

Bu gapdagi qo'iy so'zi ham fonetik jihatdan farqlanib Toshkent shevasiga oiddir. Adabiy tilda bu so'zlar "qo'yay" tarzida aytiladi.

Bugun ertamatan chiqdi. ("Shaytanat")

Gapdagi ertaman so'zi yurtimizdagi juda ko'p viloyatlarida qo'llaniladi. Jumladan Andijon shevasida ham. "Ertalab" so'zining shevaga oid ko'rinishi.

- *Chekishdan ol – deb buyurdi Elchin (2-k. 33-b).* Gapdagi chekishdan so'zi Toshkent shevasiga oid bo'lib, sigaret demoqchi.

Oldindagi moshin qayoqqa yursa, biz ham ashoqqa yurovramiz. Aqqa-baqqa qaramasdan yurishasanlar deb buyurishgan. ("Shaytanat")

Gapdagi moshin, ashoqqa, yurovramiz, aqqa-baqqa, yurishasanlar so'zlari adabiy tilimizga rus tilidan qabul qilib olingan "mashina" so'zi ham adabiy tildagi "o'sha yoqqa", "u yoq-bu yoqqa", "yurasanlar" so'zlarining Farg'ona shevasiga oid ko'rinishidir.

- *Omma hismatimga rozi emasman.*
- *Ag'da Quvasoy, bag'da Marg'ilon.*
- *Gapimning chatag'i bo'lsa aytovring.*

Judayla yon bosavermangda bularga. ("Shaytanat")

- Bu gaplarda "omma" bag'da, chatag'i, aytovring, judayla so'zlari Farg'ona shevasiga oid so'zlardir. Adabiy me'yorda bu so'zlar "ammo", "buyoqda", "chatog'i", "aytavering", "juda ham" kabi yuritildi.

- *Choyxona ashatda.*
- *Nimaga kelishovurmadi?*

- *Yangilik uncha yo'g'am.* Bu gaplardagi ashatda, kelishavurmadi, yo'g'am so'zlari ham Farg'ona shevasiga oid bo'lib, adabiy tilda "o'sha yerda", "kelishavermadi" biron narsaning mavjud emasligini bildiruvchi ma'nodagi "yo'q" so'zining shevaga oid ko'rinishi.

Buni qarangki avtobus nomerini eslab qog'an ekanman. ("Shaytanat")

Gapdagi qog'an so'zi adabiy tildagi "qolgan" so'zining Farg'ona shevasiga oid ko'rinishi.

- *Sen gaplashovur, so'raganini tovib beramiz. E, yo'q, o'qiydag'on bolamas.*

Beshta so'm beraman ketovramanda. ("Shaytanat")

Bu gaplardagi gaplashovur, tovib, o'qiydag'on so'zlari Farg'ona shevasiga oid bo'lib, Andijon shevasida ham uchraydi. Adabiy tilda bu so'zlar "gaplashaver", "topib", "o'qiydigan" so'zlarining buzib talaffuz qilinganligi ko'rinishidir. Bu yerda fonetik o'zgarish sodir bo'lyapti.

Bir polvon kelib hovuzni o'ziyla tozalab qo'ydi-ya. ("Shaytanat")

- Bu gapdagi o'ziyla so'zi Farg'ona, Andijon shevasiga oid bo'lib, adabiy me'yorda "bir o'zi" degan so'zni ifodalab keladi.

Ja daraklari yo'q deb xafa bo'lishdi. – Ako, bu kriminal ish. ("Shaytanat")

- Ushbu gaplardagi ako, ja so'zlari ham shevaga oid so'zlar bo'lib, ular lo'li hamda Farg'ona shevasidir. Aslida bu so'zlar "aka", "juda" so'zlari edi.

Argo va jargonlar. O'zbek tilining ikki tomlik izohli lug'atida argo va jargonlarga quyidagicha ta'rif beriladi: «Argo va jargon fransuzcha so'z bo'lib, biror ijtimoiy guruhning o'ziga xos, boshqalar tushunmaydigan yasama tili»¹. Argo va jargon so'zlar ma'no va shakl jihatdan bir-biriga yaqin so'zlar bo'lsa ham, ijtimoiy guruxlanish jihatdan bir- biridan farq qiladi. Argo va jargonlar iste'mol doirasi chegaralangan leksikaga kirsam ham, o'zbek tilini boyitishda ularning ahamiyati juda muximdir.

Argo va jargonlar yordamida kishilarni qaysi ijtimoiy guruh vakillari ekanligini anglash mumkin. Argo va jargonlar boshqa leksik birliklar bilan doimo o'zaro aloqada bo'ladi. Ayrim badiiy argo va jargolar personaj tilidan qo'llanadi. Bu asarning tabiiy chiqishiga imkon beradi. Masalan «Zelixon» esa «o'k ilon» deb nom chiqargan bu odamdan zarracha tai tortmay o'giravoradi.

Argo va jargon so'zlarni qo'llovchi kishilar guruxi turli —tuman bo'lgani uchun, argo — jargon so'zlar ham kelib chiqish xarakteriga kura turli— tuman bo'ladi. Masalan: O'g'rilar argosi; savdogarlar argosi; qimorbozlar argosi; dallollar argosi, kissavurlar argosi.

¹ Узбек тилининг изоҳли луғати. Москва. Рус тили нашр. 1981.

Umumxalk tilidan farq qilib, biror ijtimoiy gurux o'rtasida yaratilgan va ularning talablarini ifodalovchi maxsus so'z va iboralar jargon deyiladi. Masalan: «qurug'i» so'zini olsak «Shaytanat» asarida bu ikki xil ma'noda qo'llangan.

Jargonlarning eng xarakterli belgisi o'zaro so'zlashuvni boshqalardan mahfiy sir tutishdir. Shunga ko'ra jargonlarning yaratilish yo'llari ham ko'pincha tilning so'z yasash sistemasiga to'tri kelmaydi. Ular o'ziga xos sun'iy, shartli so'zlardir.

Jargonlar ko'pincha tildagi so'zlarning tovush tomonini o'zgarishi, buzib qo'llash, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish va tildagi mavjud so'zlarga ma'no berish yo'li bilan hosil qilinadi.

Ijtimoiy argo va jargonlarni o'zbek tilida abdal tili deb ham yuritilgan. Qadimda maddohlar va qalandarlar o'z niyatini boshqalardan yashirish maqsadida o'zlari uchungina tushunarli bo'lgan abdal tilidan foydalangan.

Bundan tashqari bu ijtimoiy jargonlar salbiy ahamiyat kasb etganligi uchun argo deb xam yuritiladi.

Masalan: loy, soqqa, kusoi kurug'i (pul), xit (begona), tuz (aqlli) kabi qimorboz o'trilar argosi.

- *Vey bratan, man o'zim borganman. Soqqa yo'g'idi, qarzga bergan.* ("Shaytanat")

- *Kennoyimga bizadan salom ayting. Ertaga beshtagina kusok tayyorlab qo'ysinlar. (5 ming ma'nosida).*

- *Xo'jayininga «O'ldirib, suvga tashladim» deysan. Men bilan bexit uchrashib turasan.*

— *Sen bu o'yinda ikkita xatoga yo'l qo'yding. Birinchisi — akademikni «tuz» deb bilding* ("Shaytanat")

Argo va jargolar shevaga xos so'zlarni qo'llash va laqab qo'yish bilan ham bog'liq bo'ladi. Badiiy asarlarda qahramonlar portretining ayrim qirralarini ochib berishga muvaffaq bo'ladi. Masalan:

— *Isitma borku, qayoqdan qochib kelyapsan, chuvrindi uka —dedi Haydar Mahmudga.*

— *Juda go'zal! Hosil —laycha. Asadbek — o'k ilon! Qardosh, sen agar laycha akillab g'ashini keltirsa, o'q ilon chaqib o'ldirish mumkinmi?* ("Shaytanat")

Misollarga nazar tashlaydigan bo'lsak, birinchi misoldagi chuvrindi laqabi Mahmudga kesakpolvon tomonidan bekatga kelib, qaerga borishini bilmay, ayanchli, zabun holda ekanligiga berilgan edi.

Ikkinchi misolda esa, Asabdek va Hosilning laqablaridan ularning kuch —qudrati, qanday odam ekanligini bilishimiz mumkin.

Kesakpolvon xonaga kirib, Qilich bilan so'rashib olgunicha bir — ikki daqiqa vaqt o'tadi. ("Shaytanat")

Asadbekning o'ng qo'l a'yonlaridan bo'lgan Haydarga bu laqab qaddi bastiga qarab emas, o'g'irlik qilib yurganida, pul bor deb o'ilib, belbog'idan kesak chiqqani uchun berilgan. Yana xarakter xususiyatida xam muxim masalalarga kesak ushatishday yengil qarashi kuzatiladi.

—*Bo'tqa xo'jayin tikilib turgan nuqtaga qarab, joni chiqib ketgudek bo'ldi.* (“Shaytanat”)

Bo'tqa Asadbekka qarashli videobar egasi, Kenjaning laqabi. Bu nom uning o'ta gavdaliligi uchun berilgan.

Bilasanmi, ustozim kim -Akademik! Xongirey shunday deb ko'rsatkich barmog'ini faxr bilan havolatdi. (“Shaytanat”)

Asardagi «akademik» laqabi Zelixon Xongireyga berilgan. Bunga sabab — u puxta o'ylab olib, so'ng ishga kirishardi. Shuning uchun xam asardagi eng kuchli to'daboshi Xongirey uni o'ziga ustoz deb biladi. Argo va jargonlarning biror guruh yoki tabaka doirasida paydo bo'lishiga qarab ikkiga ajratish mumkin:

a) professional argo — jargonlar

b) ijtimoiy argo — jargonlar.

Professional argo va jargonlarga biror kasb —hunar kishilari orasida ishlatiladigan maxsus so'z va iboralar kiradi. Bu xil argo va jargonlarning paydo bo'lishi, odatda, ishlab chiqarish ixtisosi, mehnatning umumiiligi va ba'zan turmush madaniyat tarzlari bilan ham bog'liq bo'ladi. Masalan:

— *Ey, prokuror, ko'zingni och! Shuncha yil uchroda sakich chaynab yurgan ekansan — da, a?* (“Shaytanat”)

Bu gap Shaytanat asaridagi prokuror va tergovchi o'rtasidagi suxbatdan olingan bo'lib, jinoyat qidiruv ugro deb qo'llashyapti.

— *Avvalgi direktoriga, bitta —ikkita plotyamni berib, kolganini komissiankada sottirar ekan.* (“Shaytanat”)

Bu gap asardagi Kesakpolvonning qizi Monika nutqidan olingan. Monika sartaroshxonada ishlayotgani uchun shu sohaga oid so'zlar uning nutqida ishlatilgan.

Professional jargonlar ijtimoiy jargonlardan nomaqbul ifoda qilishi va ba'zan xarakterga ega bo'lishi bilan farqlanadi.

Umuman argo va jargonlarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

1. Argo va jargonlar adabiy tilda nomi bo'lgan narsa va hodisalarning boshqacha, juda tor guruxdagi atamasidir.

2. Argo va jargonlar har doim ekspressiv stilistik buyoqqa ega bo'ladi.

3. Ko'pchilik jargonlar o'tkinchi, vaqtincha bo'lib, keyinroq asta —sekin yo butunlay unutilib ketadi yoki emotsional - stilistik bo'yog'i tufayli oddiy so'zlashuvga undan umumqo'llanishga, ya'ni chegaralanmagan leksikaga o'tishi mumkin.

Argo va jargonlarni qo'llovchi guruhlar turlicha uyushadilar:

1. Qiziqishlariga, o'rganib qolgan odatlariga qarab birlashgan guruhlariga xos jargonlar ichuvchilar tilida:

— *oqidanmi yo qizilidanmi, xo'jayin?*

— *O'ldirsa ham qizili o'ldirsin.* ("Shaytanat")

Bu yerda qizili, oqi deganda vino, aroq ichimliklari ko'zda tutilyapti.

2. Yoshlariga, jinslariga ko'ra birlashgan guruhlariga xos argo va jargonlar.

3. Ma'lum kasb — hunar kishilari orasida uchraydigan argo va jargonlar.

Bundan tashqari, badiiy asarlarda ikki tildagi jargonlar uchraydi.

1. Badiiy jargonlar

a) tarixiy asarlarda davr ifodasi, ma'lum gurux nutqini individuallashtirish sifatida qo'llanadi.

b) tarixiy asarlarda davr koloritini berish, tarixiy shaxslar nutqini individuallashtirib berishda sinfiy jargonlar ko'plab qo'llaniladi.

2. Zamonaviy jargonlar.

Zamonaviy asarlarda ham hozirgi tilimizdagi kichik ijtimoiy guruxlarga oid so'zlar qahramonlar xarakteri, saviyasini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Masalan:

Bek akangiz cho'tal oladigan gadolar toifasidan emaslar. ("Shaytanat")

Misoldagi cho'tal so'zi mafiyaga qimorbozlarga oid jargon bo'lib, «Shaytanat» romanining markazii qahramoni Asadbekka nisbatan aytilgan. Shuningdek, ayrim obrazlar, asarda jargonga oid mahfiy so'zlar bilan nomlangan.

Masalan: *«G'ilay hech tap tortmay uyni alg'ov - dalg'ov qilib Zelixonning xazinasini qidirgandi».* ("Shaytanat")

Jalol shilimshiq Elchinning vajohatiga qarab «baribir o'ldiradi» deb o'yladi. ("Shaytanat")

Ayrim qahramonlar nutqini individuallashtirish uchun jargon so'zlar ishlatiladi. Bunda kupincha uzbek tiliga o'zlashgan boshqa tilga xos so'zlar qo'llaniladi. Jargon so'zlar ayrim hollarda shevaga xos so'zlar bilan xam uykunlashadi. Albatta, badiiy asarda jargonga oid so'zlar muallif nutqidan emas qahramonlar nutqidan beriladi.

— *Choydan oling, bugun oddih bo'lsa, shoshib qayoqqayam borasiz.* ("Shaytanat")

— *Asadbek malodets! Vysshiiy klass!* — dedi u ("Shaytanat")

— *Paxan o'zimizdan ekan- ku,* — dedi u sheriklariga qarab. ("Shaytanat")

— *Juda xam otstaliysan —da, asarchik. Obijatsya qilmaginu sen xuddi o'n to'kqizinchi vekning odamiga o'xshaysan.* (“Shaytanat”)

Bir xil badiiy asarda jargonlar qaxramonni qaysi gurux vakili ekanligidan xabar bersa, airimlari uning ruxiy ahvolini ochishga yordam beradi.

Albatta, jargonlar biror guruh yoki tabaqalar doirasida paydo bo'ladi, lekin ular uzok yashamaydi. Gurux yoki uyushgan to'dalar yo'kolishi bilanoq jargon so'zlar iste'moldan chiqadi. Ba'zilar adabiy tilga o'zlashib ketadi.

«*Maskovga umid bilan ketdilar, o'z joniga xalovatli xabar keltira olmaydilar.* (“Shaytanat”)

Misoldagi Maskov so'zi asli savdogarlar nutqiga xos bo'lib, ayrim hollarda adabiy tilda xam uchrab turishi mumkin.

Jargonlarga oid so'zlar, asosan, bir guruhning ikki vakili o'zaro so'zlashganda ko'proq qo'llanadi. Shuning uchun ham ular sun'iy so'zlar hisoblanadi.

Jargonlarning manbai, asosan, so'zning shakli butunlay o'zgartirilgandan keyin qaysi tilga xosligini aniqlash qiyin bo'lgan so'zlar va sun'iy so'zlardir.

Boshqa tildan kirgan so'zlar ham jargonning manbai hisoblanadi. Masalan:

Mujik mard inson, kozyol sotqin ma'nosida.

Argo va jargonlar iste'mol doirasi chegaralangan leksikaga kirsa ham o'zbek tilini boitishda ularning ahamiyati juda muxim. Argo va jargonlar bizga asarni o'rganish davomida qahramonlarning qaysi gurux vakili ekanligini aniqlashimizga yordam berdi.

Tilning noadabiy qatlam leksikasiga argolar, jargonlar ham kiradi. Quyida bu kabi so'zlarni ham ko'rib chiqamiz. Ularning airimlari “O'zbek tilining izohli lug'ati” ga kiritilgan. Birinchi galda ushbu lug'atga kiritilganlarini ko'rib chiqamiz. Argo va jargon so'zlar

Parazit (“Shaytanat”) – “*Ko'nishdi parazitlar*”.

1. Boshqa organizmlarning tanasida yoki ichida yashab, uning hisobiga oziqlanuvchi jonivor yoki o'simlik.
2. Boshqalar mehnati hisobiga yashovchi tekinxo'r.

Enag'ar (“Shaytanat”, 4-kitob. 144-bet). – “*Ikki begunohni qamog'ingga tiqib qo'yib yana “anglashilmovchilik” deb bezrayasanmi enag'ar*”. Bu so'zga ta'rif berilmadi.

Palid (“Shaytanat”, 4-kitob. 82-bet). *Bunaqa palidlikni Xongreydan o'rganib kelingmi?*

1. Ortiq daraja kir, iflos; 2. O'taketgan, yaramas, qabix odam.

Xunasa (“Shaytanat”, 4-kitob. 139-bet.). – *Ha, xunasa, buni ham yetkazgan ekan – deb o'yladi Asadbek.*

1. Ham erkak, ham ayollik jinsiy belgilari bor odam yoki hayvon.
2. Yaramas, ablah, razil.

Laycha (“*Shaytanat*”, 4-kitob. 119-bet). Agar uning KGB emas, Xongreyga tobe laycha ekanini bilmasam unda chindanam paytavafahm bo‘laman.

1. Kichkina pastak uy iti.
2. Ko‘chma salb. Birovning har qanday topshirig‘ini ko‘r-ko‘rona so‘zsiz bajarishga tayyor kishi, yugurdak.

Jinni (“*Shaytanat*”, 4-kitob. 156-bet). – Jinnimisan! Kesakpolvon endi qattiqroq tepdi.

1. Aqldan ozgan, ruhiy xastalikka yo‘liqqan, telba, savdoyi.
2. Ko‘chma. Ko‘ngliga kelgan nojo‘ya axmoqona ishlar, kelishmaydigan qiliqlar qiladigan, dumbul.

Mijg‘ov (4-kitob. 282-bet). – Bo‘ldi, mijg‘ovlik qilma.

1. Bir ishni dadillik bilan qila olmaydigan lanj, mag‘zava.
2. Harxashachi ko‘p, injiq.

So‘tak (“*Shaytanat*”, 4-kitob. 282-bet). Pul ishlaydigan odam shunaqa imijiqi bo‘ladimi, so‘tak.

Sodda go‘l. So‘tak odam.

Dovdirama (4-kitob. 315-bet). – Dovdirama, kesa ham gaplashuvding.

1. Gandiraklamoq, alpon-talpon harakat qilmoq.
2. Telba-teskari, alkash-chulkash gaplar valdiramoq.
3. O‘zini yo‘qotmoq, sarosimaga tushmoq.

Lo‘ttivozlik (“*Shaytanat*”, 1-kitob. 13-bet). Xolidiyning shogirdi dissertatsiya yoqlayotganida Anvar bu ilmiy ish emas, lo‘ttivozlik deb fikrini isbot qilishga urindi.

Qo‘g‘irchoq o‘ynatib o‘yin ko‘rsatuvchi.

Xotinchalish (“*Shaytanat*”, 4-kitob. 397-bet). – Har doim shunaqa xotinchalishlik qilasanmi? – deb jerkib berdi. Qilig‘i yoki xatti-harakati bilan xotinlarga o‘xshagan, xotinlarni eslatadigan erkak.

Nusxa (“*Shaytanat*”, 4-kitob. 398-bet). – Qani, sen so‘rab ko‘rchi, meni gapimga tushunmaypti bu nusxang – dedi Asadbek qoriga qarab.

1. Bir turdagi narsalar haqida tushuncha beradigan na‘muna.
2. Bir xil qilib yasash, ko‘chirish uchun tayyorlanadigan na‘muna, andoza.
3. Bosma yoki yozma asarning har bir donasi.
4. Biror narsaning aslidan olgan ko‘chirma.
5. Biron salbiy toifaga mansub odam.
6. Aft, bashara, angor.

Tulki (“*Shaytanat*”, 4-kitob. 405-bet). – Ha tulki, - deb o‘yladi Asadbek, - ishkalingning isi chiqqanidan keyin yorilyapsanmi?

1. Itlar turkumiga mansub, tumshug'i uzun, dumi mayin, uzun junli, sut emizuvchi hayvon.

2. Ko'chma. O'taketgan ayyor, makkor odam haqida.

Dayus ("Shaytanat", 4-kitob. 145-bet). – Dayusning bolasi ko'rinmayaptimi? – deb Asadbekdan so'radi.

1. Qo'shmachi dalla. Qattiq so'kish iborasi. Ba'zi kitoblarda o'z ayolini rashk qilmaydigan, begona erkaklardan qizg'anmaydigan kishiga ham ushbu so'z ishlatiladi.

Befahm ("Shaytanat", 4-kitob. 141-bet). – Sen befahmlarda andisha yo'q.

Tezda fahmlab ololmaydigan, uncha-munchaga fahmi yetmaydigan kalta-fahm, fahmi yo'q.

Haromi. ("Shaytanat", 4-kitob. 142-bet). – Bu haromi oshnang dunyoda vijdon nima ekanini bilmay o'tar – degan edi.

O'zaro nikoh qilinmagan erkak va ayoldan tug'ilgan bola.

Muttaham. ("Shaytanat", 4-kitob. 177-bet). – Xullas endi o'shalar muttaham ekan. Oldi-berdi muamalalarida nopok, firibgar, qallob.

Nomard ("Shaytanat", 4-kitob. 198-bet). – Berkitgan tillalarini chiqarsin, to'ydirib sug'ormagan nomard. 1. Yaxshilikni adolat – insofni bilmaydigan, qo'lidan tantilik kelmaydigan, noinsof vijdonfunush. 2. Yuragi yo'q qo'rqq.

G'alamis ("Shaytanat", 4-kitob. 166-bet). – Shu mahallada bir-ikki g'alamis bor, yuqoridagilarga xat yozgan.

Kishilar orasini buzishga, janjal chiqarishga urinuvchi, fitnachi, g'iybatchi.

Ablah ("Shaytanat", 4-kitob. 317-bet). Orada qizining taqdiri bor ekan, har qanday ablahning mal'unliklariga chidashdan o'zga chorasi yo'q edi.

1. Be'mani, nodon. 2. O'taketgan yaramas.

Mal'un ("Shaytanat", 4-kitob. 317-bet). La'nati, la'natlangan.

Itbaliq. ("Shaytanat", 3-kitob. 394-bet). – Atrofida yetti-sakkizta itbaliqlari bor. Suvda va quruqda yashovchi; tuxumdan chiqqan murtaqi.

Lattachaynar. ("Shaytanat", 3-kitob. 18-bet). – Lattachaynarlik qilma. Gapining tuturig'i yo'q, bir gapniha deb takrorlaydigan ezma. O'zbek tilining izohli lug'atiga kiritilmagan so'zlar.

Marjaboz. Ma'lum to'dalar yoki guruhlar orasida keng tarqalgan so'z. Xotinboz ma'nosida. – Qayoqlarda yuribsan marjaboz? ("Shaytanat", 4-k. 80-b).

Harif. ("Shaytanat", 4-kitob. 114-bet). Bu so'z xalq orasida keng tarqalgan bo'lib, o'ziga ortiq darajada ishonadigan, o'ziga bino qo'ygan, hamma narsani o'z qarichi bilan o'lchaydigan odam.

"E, yo'q, u harifning marhamati kerakmas".

Paytavafahm. (“Shaytanat”, 4-kitob. 119-bet.).

Agar uning KGB da emas, Xongreyga tobe laycha yekanini bilmasam, unda chindan ham paytavafahm bo‘laman. Bu so‘z befarosat so‘zi bilan ma‘nodosh. Gapirganida ham, biror ishni yumushni bajarishda boshqalarni hohish istagini hisobga olishga uquvi yo‘q, layoqatsiz, vaziyatni hisobga ololmaydigan odam.

G‘arko‘z. (“Shaytanat”, 4-kitob. 143-bet). “Asadbek uylanganidan so‘ng Jalil “bu g‘arko‘z oshnang endi ostonanggahatlamasin” deb shart qo‘ydi”. Chiroyli odamga, chiroyli narsalarga suqlanib boquvchi odam. Havas bu odamga begona. Ko‘ziga yaxshi ko‘ringan nimaiki bor, o‘zini qilishni hoxlaydi.

Zang‘ar. (“Shaytanat”, 4-k. 145-b). Ommaga tanish so‘z. Yaramas, muttaham so‘zi bilan ma‘nodosh.

Qizig‘ar. (“Shaytanat”, 3-k. 177-b). Bu so‘z ham ommaga tanish. Ahloqan buzuvchi bo‘lgan erkak yoki ayolga nisbatan ham ishlatiladi.

Maraz. (“Shaytanat”, 4-k. 198-b). – O‘, maraz, sen meni laqillatsang ham Bekni laqillataman dema! Bu so‘z so‘kish ma‘nosida kelyapti.

Xalq orasida bu so‘z tuzalmaydigan bitmaydigan yaraga nisbatan ham ishlatiladi.

Hebbim. Namuncha lallayasan, hebbim! Xatti-harakatlari bilan ayollarni eslatuvchi erkak.

Vulgarizm va varvarizmlar. Shuningdek asardan rus tili qatlami leksikasi ham o‘rin olgan. Masalan: - Oy, papul keldi, - deb o‘rnidan turdi. Gapdagi papul so‘zi o‘zbek tilidagi “dada” so‘zini anglatib, rus tilidagi “papa” so‘zini buzib talaffuz qilinayotganini ko‘rsatadi.

- U yoqda zo‘r do‘xtirlar bor, - dedi (“Shaytanat”, 4-k. 84-b). Bu gapdagi do‘xtir so‘zi o‘zbek tilidagi “shifokor” so‘zini shevaga anglatib, rus tilidagi “doktor” so‘zini shevaga moslab talaffuz qilinishi ko‘rinishidir. Shifokor so‘zi kundalik turmushimizga o‘g‘ri tadbiiq etilsa “vrach” so‘ziga to‘g‘ri keladi.

- Endi shuchat qilsangiz o‘ziz borib ko‘rasiz. Gapdagi shuchat so‘zi ham rus tilidan olingan bo‘lib, ikkala tilning ham adabiy normalariga javob bermaydi. Rus tilidagi “shuchno” so‘zining buzib talaffuz qilinishi natijasidir.

- Ha, qariman, vaabshe starushkaman. (“Shaytanat”, 4-k. 155-b). –Adajonisi bugun sal noto‘roqmisiz? Uyga kirishga uspet qilmay baqirdingiz-a. (“Shaytanat”, 4-k. 155-b). Bu gaplardagi starushkaman, netoroqmisiz, uspet so‘zlari rus tilida ham adabiy normalarga ham javob bermaydi. O‘zbek tiliga tarjima qilinganida bu so‘zlar quyidagicha ma‘nolarni bildiradi: yeksa ayol, g‘alatiroq, biron ishga o‘z vaqtida ulgurmaslik.

- Odamlar zavistdan kuyib ketsin.

- *Voy interesnosiz-a yesli kelinlar bilan kelsalar, mayda-chuyda qilishim kerak-ku.* (“*Shaytanat*”, 4-k. 156-157-b).

Bu gaplardagi zavistdan, interesnoz-a soʻzlari ham rus tildagi soʻzlarni oʻzbek tiliga buzib olib kirilganligi koʻrinishidir.

- *Pul topilpdi, bratan, bola topilmaydi.* (“*Shaytanat*”, 4-k. 397-b). Gapdagi bratan soʻzi rus tilida ham noadabiy soʻz boʻlib, aytilaytgan odamga nisbatan bepisantlik maʼnolarini ifodalaydi. Rus tilida bu soʻz “brat”, oʻzbek tilida “aka” yuritilish lozim.

Zelixonning “bu mening zemlyagim” degan gapidan keyin tinchishdi. (“*Shaytanat*”, 1-k. 88-b). Bu gapdagi zemlyagim soʻzi ham oʻzbek tili lugʻatiga kiritilmagan boʻlib, rus tilidagi “hamshaharim” degan maʼnoni anglatuvchi soʻzni ifodalaydi.

- *Oʻrischa ustalingda belim qotib qoldi. – Oʻtkir domlaga oʻqitvormaganimda shuncha vaqt bannisada yotmasiding. – Stalin davrida represa qilinganman.* (“*Shaytanat*”, 1-k. 155.165.181-b).

Bu gaplardagi ustal, bannisa, represa soʻzlari rus tilidagi soʻzlarning buzib talaffuz qilinishi natijasidir. Rus tilida bu soʻzlar “stol”, “bolnitsa”, “repressiya” kabi yuritiladi.

- *Hozir ismen almashadigan paytda keldingiz. – Oʻzim onganizovat qilganman. – Pamyati zoʻr odamlarga besh ketaman. – Bu durnoy bashkang kimga kerak. Sen mening mazgamni taqillatma. Sendaka dobriy papashkalarni yaxshi koʻraman. Asadbek vaspitaniyangni buzibdi. Bek akangni bu ishlarga putat qilma.*

- *Hozir iskaladdan oldim.*

- *Omma nomerasi bundayin bir xil boʻlmasov.* (“*Shaytanat*”, 3-k. 58.87.163.164.202.210-b). Ushbu gaplarda ham rus tilining buzib talaffuz qilinganligini koʻramiz. Rus tilida bu soʻzlar “smen”, “pamyat”, “durnaya golova”, “mozg”, “papa”, “vospitaniya”, “sklad” tarzida aytiladi. Talaffuz jihatdan oʻzgarishsiz qoʻllanilgan soʻzlar ham asarda uchraydi. Masalan: - *Hay adajonisi, bir mirutga toʻxtang, u nas novosti! Leningradda parikmaxerlarning mejdunarodniy vistavkasi boʻlayotgan ekan. – Nu da, konkurs. – Kak eto “katta koʻcha” ? I gogik pobeditel boʻlishi kerak. – Nu zachem adajonisi, Gogik Monikaning sochini pricheska qilishi kerak.*

- *Postoronniy odamni oldida prosto unijat qilib yuborasan. – Mersi papul, - qizi shunday deb erkalanganicha uni oʻpdi– da quvnoqlik bilan iziga qaytdi.*

- *Yetib kelmaganimda chutli olamni buzib yuborasiz-a, - dedi u ostona hatlayotib. – Dard? Kakoy dard...*

- *Sto raz borganman oʻsha Leningradga.*

- *Vbi chto, adasi ustimdan kulyapiszmi?*

- *Mejdu prochim, Oysanamxon Yaponiyaga ketayotganmishlar. Nu vot, eri bo'lmayam ketyapti Yaponiyaga. Vot Poshsha opam ham yuribdilar Germaniyada mazza qilib. Birga yuborsayiz bo'lardi, har holda chujoy emasmizku?*
- *Vuuy vaabshe neterpimo bo'lib ketyapsiz.*

2.3. Tohir Malik asarlarida grammatik birliklar uslubi vosita sifatida

Ma'lum bir fikrni ifodalash uchun morfologik shakllarning va sintaktik qurilmalarning stilistik variantlaridan foydalanish va tilda ana shunday sintaktik va morfologik sinonimiyaning mavjudligi grammatik birliklar haqida s'yz yuritishga asos b'yladi.¹⁹

Morfologik shakllar ichida sub'ektiv baho shakllarida stilistik b'yyoq aniq sezilib turadi. Bu shakllar k'yp'roq badiiy nutq uchun xarakterli b'ylib, u oz b'ylsa-da, og'zaki s'yzlashuv nutqida uchraydi.²⁰ O'zbek tilida erkalash, kichraytirish, hurmat, mensimaslik, kinoya, tantanavorlik, ulug'vorlikni anglatuvchi so'zlar hamda qo'shimcha holiga kelgan - **jon**, -**xon**, -**xo'r**, - **bachcha**, - **tilla** kabi elementlarni olgan sub'ektiv baho bildiruvchi otlar keng qo'llanadi. Ular orqali so'zlovchi u yoki bu shaxsga nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabatni ifodalay oladi: *Kesakpolvonning «Voy jigarim! Voy ukajonim!» degan o'kirigi «Voy, otam!»leb bo'zlayotgan bolalarning nolasini bosib ketdi.* (“Shaytanat”)

- *vor* affiksida xam qo'shimcha ma'no borligini kuzatish mumkin. Bunday affiks bilan qo'llangan so'zlar tantanavorlik ottenkasiga ega bo'ladi. *Daryoning oqishi ham, oroldagi qalin daraxtzorning epkinda tebranishi ham ulug'vor.* (Davron)

Egalik affikslarini qo'llashda birlik shaklini ko'plik uchun va aksincha ko'plik shaklini birlik uchun ishlatish orqali emotsional ekspressivlik ifodalanadi.

— *A? — Akbar qo'lidagi qadahni stolga qo'yib, yuziga fotiha tortdi. — Buni qara, xabarsiz ekanmiz.* (Falak)

— *Bizning qo'limiz shariat hukmida qat'iydur, — dedi sallali kishi, savollardan norizo ekanini yashirmay.* (Falak)

Ushbu gaplarda I – shaxs birlik o'rnida ko'plik formasining ishlatilishi orqali ma'no kuchaytirilgan.

Badiiy asarda ta'sirchanlikni ta'minlashning **sintaktik** usulidan keng foydalaniladi. T.Malik asarlarida ham **sintaktik parallelizm**, **emotsional gap**, **ritorik s'yroq gap**, **inversiya**, **ellipsis**, **gradatsiya**, **antiteza**, **farqlash**, **ŷxshatish** kabi hodisalar yordamida ekspressivlik yuzaga keladi.

¹⁹ Қаранг: Шомақсудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси. – Т: Ўқитувчи. 1983

²⁰ Шомақсудов А. ва бошқалар. Курсатилган манба. – Т: Ўқитувчи. 1983

Синтактик параллелизм (yunoncha parallellos-yonma-yon boruvchi) yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega бўлиши.²¹ Masalan:

Bu gapni eshitib, Noila kula boshladi. Zaynabning ovozi bilan kuldi. Xaholab kuldi. Kўzlaridan yosh quyilib, yўksib-yўksib yig'lab kuldi. («Shaytanat»)

Ushbu gapda sub'ektning harakat – holati bilan bog'liq ma'lumotlar fondi parallel gaplarda kengayib, aniqlashib boradi.

Sўzlovchining y'ta xursandlik yoki xafalik holatlarini yoki qahramonning his – hayajonini, voqea – hodisaga emotsional munosabatini ifodalovchi gaplar **emotsional gaplar** hisoblanadi.²² Masalan quyidagi parchada emotsional gaplar orqali qahramon ruhiyatidagi norozilik, g'azab kabi emotsional jarayonlar ravshan tasvirlangan:

– Bўlishi mumkin emas! - u shunday deb qўlini orqasiga qildi-da, tez-tez yurib ketdi. Keyin birdan tўxtab, orqasiga yўgirildi. - Men ishonmayman! Bўlishi mumkin emas! («So'nggi o'q»)

Ritorik so'roq gaplar tasdiq va inkor mazmuniga ega бўлган, tinglovchidan javob talab qilmaydigan gaplardir.²³ Ekspressiv funksiyani bajaruvchi bunday gaplar Tohir Malik asarlarida alohida y'rin tutadi. Masalan quyidagi gaplarda ritorik sўroq g'azab, hayrat, umuman, inkorning kuchli emotsiya bilan ta'kidlash uchun qўllangan:

1. Bu savollarga faqat ota javob berishi mumkin, ammo qora yerdan sas chiqqanmi hech mahal? («So'nggi o'q»)

2. Hech zamonda aka – uka Xudoning nomini y'rtaga q'yib, bir – biriga miltiq y'qtalib turadimi? («So'nggi o'q»)

O'zbek tilida har bir gap бўlagining y'ziga xos y'rni bor. Bu y'rin matnda y'zgarib qўllanishi ham mumkin.

Og'zaki nutqda gap бўlaklari tartibi erkindir.²⁴ Gap бўlaklarining y'rni ularning gapda asosiy fikrni ifodalashiga qarab ham belgilanadi. Badiiy matnda qahramonlar nutqini jonli nutqqa yaqinlashtirishda, ularning tilini individuallashtirishda **inversiya** hodisasidan foydalaniladi.²⁵ Masalan quyidagi gaplarda qahramonning ruhiy iztirobini yaqqol tasavvur etish mumkin:

Mening kўz oldimda jarga olib chiqib otishardi odamlarni. («So'nggi o'q»)

Yoki:

Istamayman sen bilan gaplashishni. («Shaytanat»)

²¹ Йўлдошев М. Ўша асар. 68-бет.

²² Йўлдошев М. Ўша асар. 69-бет.

²³ Йўлдошев М. Ўша асар. 69-бет.

²⁴ Мусаев А. Ўзбек сўзлашув нутқи услубида гап бўлаклари тартиби. Филол. фан. номз. дисс. автореф. Самарканд, 2000, Б.20.

²⁵ Йўлдошев М. Ўша асар. 70-бет.

Ellipsis tildagi tejamlilik tamoyilining xususiy holi – gap b'ylaklarining muayyan maqsad bilan tushirilish hodisasidir. N.Mahmudov gap tarkibidagi ayrim so'zlarning ongli ravishda tushirib qoldirilishi ellipsis hodisasi ekanligini ta'kidlaydi.²⁶ Masalan:

Yigitali aka mehmonga bir qarab olib «Y' - y'q, buni sotolmayman», dedi.

- *Sotolmayman, deganingiz nimasi, sakson ming yuribdi, anavi mataxni orqasiga aylantirib yigirma mingga keltiring, u yer-bu yerini artib, moylab, burang, tamom.* («Davron»)

Ushbu misolda kilometr s'yi ellipsisga uchragan. Bu jonli nutqqa xos tabiiylikni ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan.²⁷ S'zlashuv nutqida odatda kilometr, ming, million kabi miqdor bildiruvchi s'zlar tushiriladi. Jumlaning oxirida ham shunday holatni k'rishimiz mumkin:

Shaharga olib boring, kamida oltiga sotasiz, men kafilman.

Gradatsiya ifodalilikni birin – ketin kuchaytirib yoki pasaytirib borish usulidir.²⁸ Masalan:

Jahongir «otamning yoniga qaytaman», deganda k'z oldidagi oppoq muzlar, muzlar ustida uchib yurgan oppoq qor uchqunlari, avval qip-qizarib ketdi. S'ng asta qoraydi. S'ng muzlar yashil tus oldi. Qor uchqunlari t'zigan shaftoli guliday ucha ketdilar. Jahongir entikib t'xtadi. Ana-Qirqbel! Ana-bog'lari! Ana... d'nglik qabriston... Teparoqda ajdarqoya... («So'nggi o'q»)

Ushbu misolda dastlab pasayuvchi gradatsiya orqali qahramonning holati, s'ng k'ytiriluvchi gradatsiya orqali joy tasviri oydinlashib boradi tasviriylik, y'ziga xos ifodalilik, ta'sirchanlikka erishiladi.

T. Malik y'z asarlarida bir – biriga zid ma'noli s'zlarni yonma – yon q'yllash, qarshilantirish san'ati – **antitezadan** keng foydalanadi. Masalan:

Tashvishni botmonlab bergan, fursati kelganda shodlikni ham q'sha – q'sha berarkan. Bunda yozuvchi tashvish va shodlik s'zlarini y'zaro zidlab antitezani hosil qilgan. Bu bilan asarning badiiy estetik qiymatini oshirishga erishgan.

Farqlash deb ikki narsa – buyum, voqea – hodisa yoki holatlardagi differensial belgini aniqlashga aytiladi.²⁹ Masalan:

Jahongir yoshligida ham jikkak edi. Qarigach, yana kichraygancha b'lib qoldi. T'ylqin esa d'ystlarining aksi, sochlari qirqni qoralamayoq t'kilib bitdi. U haddan ziyod semirgan, kichikroq qalam g'shtdor barmoqlari orasida k'rinmay ketardi. («Falak»)

²⁶ Mahmudov N.M. Эллипсис в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1978. - Б. 9.

²⁷ Бу ҳақда қаранг: Ўринбоев Б. Вопросы синтаксиса узбекской разговорной речи. Автореф.дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1974

²⁸ Шомақсудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент. 1983. 234-бет.

²⁹ Йўлдошев М. Ўша асар. 74-бет.

Ushbu mikromatn tarkibida farqlanayotgan sub'ektlarning yziga xos sifatlari sanalmoqda. «A» sub'ektning «*jikkak*»ligi va «B» sub'ektning «*haddan ziyod semirgan*»ligi farqlash nisbati b'ylib, «d'ystlarining aksi» birikmasi ular yrtasidagi farqni b'yrttirib k'yrstishga xizmat qiladi.

O'xshatish ikki narsa yoki voqea – hodisa yrtasidagi y'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini, t'ylaroq, konkretroq, b'yrttiribroq k'yrsatib berishdir.³⁰ Masalan:

- *Dadang farishtadek pokiza, y'g'lim...* («So'nggi o'q»)

Ushbu gapda dadang – y'xshatish sub'ekti, farishta – y'xshatish etaloni, pokiza – y'xshatish asosi, – day y'xshatishning shakliy k'yrstakichidir. Tohir Malikning «So'nggi o'q» asaridan q'yllangan ushbu y'xshatishdan maqsad – sub'ektning jamiyat a'zolari ongida turg'unlashgan farishtaga xos sifatlari («go'zal», «beg'ubor» «*beayb*», «pokiza») egasi ekaniligini kitobxon k'yi y'ngida g'yzal b'yyoqlarda gavdalandirishdir. Ammo shunisi xarakterliki, odatda g'yzallik, pokizalik (farishtadek g'yzal, farishtadek beg'ubor) ramzi sifatida tilga olinadigan an'anaviy y'xshatishni adib «beayb» ma'nosida q'yllab yziga xos obrazlilik, ta'sirchanlik maqsadiga xizmat qildirgan. Bu ma'no jumlaning keyingi qismida oydinlashib boradi:

- *Dadang farishtadek pokiza, y'g'lim... Biz uydan chiqib ketganimizdan sy'ng kimdir qishloqqa y't q'yrgan...* (*Dadang qishloqqa o't qo'y magan*)

Adabiy tilning tasviriy vositasi bo'lgan o'xshatishda leksik birliklar bilan ifodalangan ikki narsa, hodisa yoki tushuncha o'zining ma'lum bir belgi, xususiyati asosida bir — biriga obrazli chog'ishtiriladi. O'xshatish to'g'ridan — to'g'ri o'xshash tomonni ko'rsatish bilan yoki — dek (—day), *o'xshash*, *xuddi*, *go'yo*, *misli*, *singari*, *yanglig'*, *simon* kabi so'zlar yordami bilan tuziladi. Masalan:

U o'zini qafasga tushib qolgan quyondek xis etdi. (“Shaytanat”)

O'xshatish ko'chimning sodda turiga kiradi va ikki predmet yoki voqea — hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkretroq, bo'rttiribroq ko'rsatadi. Shuning uchun ham biror predmetning ma'lum bir belgisini boshqa bir predmetga solishtirishga o'xshatish deyiladi. Chunonchi, *qoshi kalamla/ U, yuzi oyday* kabi iboralar sodda o'xshatishlarga misol bo'la oladi. Bundan tashqari, murakkab o'xshatishlar ham mavjud bo'lib, unda bir predmetning bir necha xususiyati boshqa predmetlarga solishtiriladi. To'liq o'xshatishda to'rt element:

- 1) o'xshagan narsa;
- 2) o'xshatilgan narsa;
- 3) o'xshash sifat;

³⁰ Шомаксудов А. ва бошқалар. Кўрсатилган манба. 239-бет.

4) o'xshatish qo'shimchasi (— dek, kabi) mavjud bo'ladi. Qisqa o'xshatishda esa bu to'rt element bo'lmay, faqat o'xshagan va o'xshatilgan iarsa bo'ladi, O'xshatishlar narsa va hodisalarni ifodalagan leksik birliklar o'zining to'g'ri ma'nosi bilan solishtiriladi. Leksik birliklar bilan qiyoslanayotgan narsa va hodisalarning belgilari muxim rol o'ynaydi.

Masalan: *Qirra burun, ko'zlari burgutnikidek Zelixon o'y surganida ham nigoxini bir nuqtada to'xtatmas edi. ("Shaytanat")*

Bu gapda *Zelixon* va *burgut* bir — biriga ko'zning harakatlanish belgisi orqali chog'ishtirilgan. Tashqi tomondan olib qaraganda odam bilan burgut o'rtasida o'xshashlik yo'q. Lekin Zelixonning ko'z qarashlari bilan burgutning ko'zi o'rtasida o'xshashlik bor.

Demak, o'xshatishda uch asos e'tiborga olinadi: birinchidan, o'xshatilayotgan predmet— *Zelixon*, o'xshatiluvchi ob'ekt, ikkinchi o'xshayotgan predmet— *burgutnikidek*— o'xshovchi obraz, uchinchi, o'xshatilayotgan va o'xshayotgan narsa, hodisalarning o'xshashlik belgisi — *qarash*— o'xshatma belgi.

O'xshatishning o'xshatiluvchi ob'ekti bilan o'xshovchi obrazi uning asosiy sharti hisoblanadi.

O'xshatishlar yuzaga kelish asoslariga, badiiy adabiyot tilida qo'llanishiga, ma'nolariga, komponentlarning tarkibiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. O'xshatishlar, avvalo, ikki katta guruhga bo'linadi:

1. Konkret o'xshatishlar sezgilarga asoslanadi. Bu o'xshatishlar *ko'rish, eshitish, hid bilish, maza — tam* va *teri — tuyg'u, sezgi* organlarining biri asosida yuzaga keladi.

Masalan: *Dunyoning oromini shu barmoqlar qisirlashi buzib turganday, xonani birdaniga sukunat bosdi. ("Shaytanat")*

2. Abstrakt o'xshatishlar biror kishining *nazarida, xayolida* ro'y beradi. Ko'pincha *nazarida, aylanmoq, eslatmoq, go'yo* so'zlari bilan ifodalanadi.

Masalan: *Sharif eshigi oldida uzoq turib qoldi.*

Pishiqlik g'ishtdan qurilib savlat to'kib turgan imoratlar qatoridagi somon suvoqli pastak uyi ko'ziga yetim boladay mung'ayib ko'ringan. Nazarida egasi qamoqqa olib ketilganidan so'ng uyi sharmandalik yukini ko'tarolmay cho'kibroq qolganday tuyuldi. ("Shaytanat")

Badiiy adabiyot tilida o'xshatishlar qo'llanish jihatdan ikki xil: *an'anaviy va individual* o'xshatishlarga bo'linadi.

An'anaviy o'xshatishlar jonli — so'zlashuv nutqidagi o'xshatishlar bo'lib, ular yozuvchi tomonidan o'zgartirilmagani holda badiiy asar tiliga olib kiriladi.

Masalan *chayonday zahar, xo'rozday urushqoq, qo'yday yuvosh* kabi.

Individual o'xshatishlarda emotsional — ekspressivlik, obrazlilik yaqqol gavdalanib turadi. Bunday o'xshatishlar ko'pincha avtor nutqi orqali beriladi.

O'xshatishlar mazmuniga qarab *inkor, kinoya, satirik va chog'ishtiruvli* bo'ladi.

Inkor o'xshatishlarda o'xshatiluvchi ob'ektga o'xshovchi obrazni qarama-qarshi qo'yish yo'li bilan qiyoslanadi. Bularda *emas, yo'q* so'zlari qatnashadi.

Kinoyali o'xshatishlarda oldin o'xshatiluvchi ob'ektning xususiyatlari tasvirlanadi, keyin esa o'xshovchi obraz beriladi. Bu obrazda mubolag'a ustun turadi:

Masalan: *Qayta qurish sharofati bilan barcha idoralardagi keksa hodimlar o'rnini iqtidorli yoshlar egallaganidek, pensiya puli tirikchiligiga yetmay, shu qorovullik maqomiga ko'z tikuvchi qariyalar tantana bilan kuzatilib, ular o'rniga tog'ni behosdan urib tolqon qilib yubormasliklari uchun kamtarinroq ishni istagan yigitlarni olishdi. ("Shaytanat")*

Satirik o'xshatishlarda biror salbiy obrazning portreti, hulq -atvori hajvga olinadi:

Masalan: *O'rinbosar Zohidning xonasiga kirdi —yu, darsga kech qolgan boladay boshini egib, yer ostidan qarab qo'ydi. Asta so'z boshlasa, ko'zlari shunchalar muloyim boqardiki, odam o'ldirib kelgan taqdirda ham xibsga olish haqidagi qarorga imzo chekishga qo'l bormasdi. U gavdasiga monand semizgina jigarrang sumka ko'tarib olgan edi. O'rinbosar Zohidning ro'parasiga o'tirib, sumkani tizzasiga qo'ydi- da. «kamaysizmi yo rahm qilasizmi?» deganday mo'ltillab qaradi. ("Shaytanat")*

Chog'ishtiruv o'xshatishlarda o'xshatiluvchi ob'ekt bilan o'xshovchi obrazlar birikma yoki gap holida kelib bir -biriga chog'ishtiriladi.

Masalan: *Har bir tog'ning cho'qqisi bo'lganidek, Shaytanat olami voqealariniig bayoni ham shu nuqtada cho'qqisiga boradi ("Shaytanat")*

Hozirgi o'zbek adabiy tilida —day// —dek, — simon, — ona, —namo,—omuz, —ga, — larcha,—chasiga, —dan, affikslari o'xshatish komponentlarining o'xshovchi obrazini ifodalagan so'zlarga qo'shilib o'xshatish ma'nosini anglatadi.

—dek. Bu gapdan keyin Zelixon kecha tundagi suhbatni yodga oldi. Ismoilbey Vatan xaqida gapira turib «Agar sendin tonar bo'lsam, Nasibam ohuzor bo'lsin», deb xo'rsinib qo'ygan edi.

Eslab turib badanida xuddi minglab chumoli barobar o'rmalagandek bo'ldi. ("Shaytanat")

—day. Avtobuslar shoshilmay sekin yurishar edi. Zelixonning nazarida ular odamlar qalbidagi dardning og'irligini tortolmayotganday edi. ("Shaytanat")

Hozirgi o'zbek tilida o'xshatish munosabatini ifodalovchi yordamchi so'zlarga *kabi, singari, yanglig', xuddi, go'yo, bamisoli, misli, mislsiz, misoli, baayni* kabi ko'makchi va yuklamalarni ko'rsatish mumkin.

Kabi soʻzi. Grammatikaga oid adabiyotlarda kabi singari yordamchi soʻzlarning oʻxshatish qiyoslash maʼnolarini anglatishi qayd qilingan.

Oʻxshatish munosabatlarida *kabi* yordamchi soʻzi oʻxshatishning asosiy komponentlaridan biri — oʻxshovchi obraz dan keyin qoʻllanadi.

Masalan: *Qaldirgʻoch moʻylovli yigit Sharifga faqirga mensimay qaragan podsho kabi ilkis nazar tashlab qoʻydi. ("Shaytanat")*

Bu vosita bilan yuzaga chiqqan oʻxshatishlarning oʻxshovchi obrazini ifodalagan soʻzlar egalik, koʻplik affikslarini, feʼning sifatdash, harakat nomi formalarini olib keladi.

Singari yordamchi soʻzi turli soʻzlarga qoʻshilib oʻxshatish hosil qaladi: *Kesak polvon anchadan beri oʻzi mushtlashmaydi. Yonida birgina imosiga mahtal boʻlib turgan oʻzi singari chayir yigitlari bor. ("Shaytanat")*

Milisaning vazifasi ushlashu - qamash, prokuraturaning vazifasi —qoralash, sudning ishi xukm chiqarish, degan yuzaki tushuncha barcha oʻzbeklar singari unga ham yoʻldosh edi. ("Shaytanat")

Goʻyo soʻzi qator adabiyotlarda bogʻlovchi, oʻxshatish chogʻishtirish bogʻlovchisi boʻlib keladi. Goʻyo amalda bogʻlovchilik funksiyasini bajara olmaydi. M.Asqarovaning fikricha, goʻyo yordamchisi sodda gaplar tarkibida yuklamaga yaqinroq, qoʻshma gaplar tarkibida bogʻlovchi — yuklama vazifasida keladi¹.

Goʻyo yordamchi soʻzi boshqa vositalar bilan kelsa, oʻxshatishni kuchaytirishga, boʻrtirishga yordam bersa, bir oʻzi qoʻllanganda, oʻxshatish munosabatlarini yuzaga chiqarib, xuddi, bamisoli soʻzlari bilan sinonim boʻla oladi.

Xuddi yordamchi soʻzi oʻxshatish maʼnosini ifodalagan asosiy va yordamchi vosita boʻlib kela oladi. Ular koʻpincha yordamchi vazifasini bajarib, oʻxshatishni boʻrtirishga, konkretlashtirishga xizmat qiladi, ayrim holatlarda oʻzlari ham oʻxshatish munosabatini ifodalay oladi:

Zohid yoʻlga xuddi oq poyandozday toʻshalgan qorni gʻichirlatib borib, pishqirib toʻxtagan avtobusga chiqdi. ("Shaytanat")

Bu gapda oʻxshatish munosabatini xuddi soʻzi yuzaga chiqarib qorning rangi oppoqligi oq poyandozga oʻxshatilyapti.

Xuddi soʻzi yordamchi vosita sifatida frazeologik iboralardan oldin kelib ham oʻxshatish munosabatini ifodalay oladi:

Yelkasidan xuddi togʻ agʻdarilganday boʻldi ("Shaytanat")

¹ Asqarova M. Ҳозирги ўзбек тилида эргашиш формалари ва эргаш гаплар. — Т.; 1966, —Б.

Xuddi soʻzi oʻxshatish munosabatida yordamchi vosita sifatida kelganida *goʻyo*, *bamisoli* soʻzlariga sinonim boʻlishi mumkin. Bundan tashqari aynan oʻzginasi soʻzlari va — *day* —*dek* affiksiga sinonim boʻla oladi.

Bamisoli soʻzi. Bu vosita doimo oʻxshovchi obraz kelgan soʻzdan oldin keladi va ayrim xolatlarda oʻxshatish ifodalovchi asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. *Bamisoli* elementining bir oʻzi bilan yuzaga kelgan oʻxshatishlarda *bamisoli* soʻzi — *day*, // —*dek*, *kabi*, *singari*, *oʻxshamok*, *eslatmoq*, *xuddi oʻzi* vositalariga sinonim boʻla oladi.

Mislsiz soʻzi. Bu vosita ham *goʻyo*, *xuddi* elementlaridek oʻxshovchi obrazdan oldin kelib, oʻxshatish maʼnosini kuchaytirishga, boʻrttirishga va oʻxshovchi obrazni ifodalagan soʻzlarni ajratib koʻrsatishga yordam beradi.

Oʻzbek tilida leksik vositalar bilan ifodalangan oʻxshatishlar xilma —xildir. Bulardan tus, shakl, holatida, *nimayu nima* degan soʻz bilan *teng*, *bilan barobar*, *boʻlmoq* kabi soʻzlar oʻxshashlikni ifodalaydi.

Hozirgi oʻzbek adabiy tili bir qancha oʻxshatishlar kelishik qoʻshimchalari va leksik vositalar yordamida ifodalanadi. Masalan, oʻxshamoq soʻzi joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi bilan oʻzi, oʻzginasi soʻzlari esa qaratqich kelishigi qoʻshimchasi bilan keladi.

Sifatlash (epitet) — badiiy tasvir vositalaridan biri, predmet voqea - hodisa, tushuncha va kishilarning belgi hislatlarini aniqlovchi, izohlovchi soʻz. Sifatlovchi soʻz aniqlanuvchi soʻz bilan birikib, xislat belgilarini koʻchirib, muayyan hodisaning u yoki bu tomonlarini aniqlaydi.

Sifatlash (epitet) kishi, narsa yoki voqeaning biror belgisini, sifatini aniq ravshan koʻrsatib beruvchi badiiy tasvir vositasidir.

U grekchadan olingan boʻlib, *ilova* degan tushunchani bildiradi. Uning gapdagi asosiy vazifasi badiiy aniqlovchilik predmetga poetik aniqlik, rang—baranglilik berishdan ibratdir. Sifatlash predmetning belgisini oddiygina koʻrsatish bilan chegaralanmaydi, uni yanada konkretlashtiradi, baholaydi va unga emotsional-ekspressiv *ottenka* kiritadi.

Sifatlash, asosan, sifatlovchi+sifatlanmish yohud sifatlanmish — sifatlovchi birikmasi holida boʻlishligi bilan aniqlovchiga teng keladi.

Badiiy adabiyotda istiora asarning gʻoyaviy mazmunini chuqur ochishga yordam beradigan vositalardan biri hisoblanadi. Istiora tasvirining aniq va goʻzal boʻlishini taʼminlaydi. Sifatlash istiora va kinoya prinsiplari asosida ham hosil boʻlishi mumkin. Shu xususiyati bilan bu ikki hodisa bir - biriga oʻxshaydi. Masalan: *Televizorni dastlab koʻrgan mahalda gʻuncha labli qizga koʻz qisib, imlab qoʻyib bir hafta oʻzicha xursand boʻlib yurgan odamni oʻgʻli voyaga yetib Maskovday joyda oʻqir ekanu, sigiridan voz kechishi nima ekan?* (“*Shaytanat*”)

Keltirilgan bu misoldagi “g‘uncha lab” birikmasi istioradir. Bunda «g‘uncha lab” birikmasida labning o‘ziga xos yakka belgi, xususiyatlari konkretlashtirilgan. Bu bilan ko‘chma ma’no bilan birgalikda birikmada emotsional -ekspressivlik ifodalanyapti.

Sifatlashda, ko‘pincha, sifatdan foydalanilsa ham turli so‘z turkumlari sifatlash bo‘lib kela oladi. Masalan: *Birovlarning onalari duru gavhar ustida tug‘ib, zarhal choyshablarga yo‘rgaklaydi. (“Shaytanat”)*

Ertaga besh ming so‘m yetgazib bermasang tilla tishlaringni sug‘urib olaman. (“Shaytanat”)

Sizda gapim bor, — dedi ayol siniq ovozda. (“Shaytanat”)

Keng dala, bepoyon, cho‘l, yam yashil bog‘ singari bir xilda ko‘plab ishlatiladigan sifatlashlar ham borki, ular doimiy sifatlash deyiladi.

Biz yuqorida sifatlash doimo ikki so‘zdan, ya’ni sifatlovchi - sifatlanmish yoki sifatlanmish -sifatlovchidan iborat bo‘ladi dedik. Sifatlovchi bilan sifatlanmish sifatlovchili birikmani tashkil qiladi.

Sifatlovchi quyidagi so‘zlar bilan ifodalanadi:

1. Sifat bilan. Bunda aniqlovchi predmetning rang — tusi, maza — ta’mi, shakl hajmi, xarakteri psixik holat kabi belgilarni bildiradi. *Kora kursida esa yolg‘iz jo‘ra boshi o‘tiribdi. (“Shaytanat”)*

Bu qora qosh yigit ko‘zlarini sal suzib qarasa, uncha - muncha ayol zoti dosh berolmay kolardi. (“Shaytanat”)

Bu misollaridagi qora sifatlovchisi sifatlanmishning rangi, tusini aniqlab kelyapti.

Ayasi dadasining qalin yoqali, katta, og‘ir paltosini kiyib olibdi. (“Shaytanat”)

Uyda kim bor? —deb so‘radi past bo‘yli kishi (“Shaytanat”)

Agar choyshab qonga belanmagan, chap ko‘kragiga pichoq kadalmaganida ,uni shirin uyquda deb o‘ylash mumkin edi. (“Shaytanat”)

Yuqoridagi misollarda qalin yoqali, katta, og‘ir, shirin, sifatlashlari bilan ifodalangan aniqlovchilar predmetning shakl —hajmini, maza —ta’mini aniqlab ko‘rsatyapti.

Chindan ham avvaliga u ko‘zlari yumuq Noila bilan suxbatlashardi. (“Shaytanat”)

Tabibboshi noshud, befahm ayol\u\ardan emas. (“Shaytanat”)

Yon daftariga «jinni odam» xotinko‘prik deb yozib qo‘ydi. (“Shaytanat”)

Bu misollarda keltirilgan «ko‘zlari yumuk» so‘zi sifatlanmishning fonetik holatini, «noshud», «befahm», «jinni» sifatlovchilari esa sifatlanmishning xarakterini aniqlab kelayapti.

2. Sifatdosh bilan. Bunda sifatlovchi predmetning xarakatga munosabat nuktai nazaridan fikrini ifodalaydi.

«Uyda ekan» —shu fikr uning parchalangan vujudiga jon qaytardi. (“Shaytanat”)

Ayvondagi qafasda mudrayotgan to‘tiqush patirlab, bir chulg‘anib qo‘ydi - yu, tinchidi.
(“Shaytanat”)

Aka-uka ertaga bo‘ladigan shodlikni bilishsa xam, bilmaganga oladi. (“Shaytanat”)

Yuqoridagi misollardagi «parchalangan», «mudrayotgan», «bo‘ladigan» sifat-doshlari bilan ifodalangan aniqlovchilar predmetning harakat belgisini apglatadi.

3. Son bilan. Bu holda aniqlovchi predmetning miqdor va tartib jihatdan belgisini bildiradi.

Latifa qilishlaricha yuzta hofiz harbiyga chaqirilibdi. (“Shaytanat”)

Ikkita giyohvand yigitni tutuvdik. (“Shaytanat”)

Xatar ko‘chasining birinchi qadamini qo‘ydi. (“Shaytanat”)

Yuqoridagi misollarda «yuzta», «ikkita», «birinchi» sifatlovchilari predmetning belgisini, miqdor va tartib sonlari orqali ifodalayapti.

4. Olmosh bilan. Bunda olmoshlarning ma’no turlariga ko‘ra, attiqlovchilar prrdmotlarni konkretlashtirib, makon, payt va boshqa jihatlardan aniqlab keladi.

O‘sha voqeadan oldin odamlaringiz mendan boj talab qilishdi(“Shaytanat”)

Qizning o‘g‘irlanishi ani shu yomg‘irdan nishon edi. (“Shaytanat”)

Yuqoridagi misollarda «o‘sha», «ana shu» kabi ko‘rsatish olmoshlari bilan ifodalangan aniqlovchilar aniqlanganligining so‘zlovchiga nisabatan masofa va vaqt jihatdan yaqinligini ifodalashga xizmat qilgan.

Elchin «mening hech qanday yomon niyatim yo‘q» deb gapni chalgitmoqchi bo‘ldi.
(“Shaytanat”)

U xayolida hamma yigitlarni sinab ko‘rdi. (“Shaytanat”)

Bu misollardagi «hech qanday», bo‘lishsizlik olmoshi aniqlanmishning inkor etish ma’nosini «hamma» belgilash olmoshi aniqlanmishning umulashtirilgan ma’nosini anglatyapti.

5. Ravish bilan. Bunda ravish sifat funksiyasida qo‘llangan bo‘ladi. U predmetning miqdorini, o‘rnini aniqlab keladi.

U ko‘p yaxshi niyatlarni diliga tugib yurgan edi.

U ortiqcha gap aytib yuborganini sezdi. (“Shaytanat”)

Bu misollardagi «ko‘p», «ortiqcha» ravishlari aniqlanmishning miqdorini aniqlab kelyapti.

6. Sifat vazifasidagi ot bilan.

Sharif temir zinalardan pastga undan hovliga chiqdi. (“Shaytanat”)

7. Taklidiy so‘zlar bilan bunda aniqlanmishning xususiyati taklidiy yo‘l bilan bildiriladi.

Zaynabning qulog‘iga shivir-shivir tovushlar eshitilganday bo‘ldi. (“Shaytanat”)

Bu misoldagi «shivir-shivir» taklidiy so‘z predmetning xususiyatini aniqlab kelyapti.

8. Otning o‘rin — joy formasi bilan. Sifatlovchilar otning urin — joy formasida ifodalanganda predmetning turgan o‘rnini, joyini aniqlaydi.

Men osmondagi haqiqatdan, yerdagi jonimni azizroq bilaman. (“Shaytanat”)

9. Otning o‘xshatish formasi. Bunday holda aniqlovchi predmetning belgisini o‘xshatish yo‘li bilan ko‘rsatadi.

Sizdek nozik ta’b odam. (“Shaytanat”)

Sifatlash yolg‘iz o‘zi kelmasdan, ma’lum so‘z birikmasi tarkibida keladi. Bunda so‘z o‘z mohiyati, o‘z belgilarini ushi ko‘chirgan holda keladi. Bunday birikma motaforik sifatlash deyiladi. Masalan: oltin vodi, zumrad baxor, kumush qish kabi.

Shu bilan birga inson bolasiga xos eng pokiza tuyg‘ularini ham quvgan edi. (“Shaytanat”)

«Pokiza» so‘zi aslida pokizalik ma’nosini ifoda etadi. Bu misolimizdagi «pokiza» so‘li ittogtga xos sifat tariqasida berilyapti va buning natijasida ko‘chma ma’no hosil bo‘lyapti.

Axadbey bilan Zelixon qontalash ufqqa tikilishgan. (“Shaytanat”)

«Qontalash» zarbdan yoki kasallik natijasida qonga to‘lgan, qizargan, ko‘kargan kabi ma’nolarni ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan misolimizda esa «qontalash» so‘zi qizargan, qizil tusga kirgan kabi ma’nolari bilan o‘zaro o‘xshashlik asosida ko‘chma ma’no hosil qilyapti.

U momiq bulutlar ustida sarxush suzardi.

Metafora natijasida hosil bo‘luvchi ko‘chma ma’no ba’zi hollarda ekspressiv — stilistik bo‘yoqqa ega bo‘lsa, ayrim hollarda bunday bo‘yoqqa ega bo‘lmaydi.

Endi u yosh dillarni vayron qiluvchi «lirik xonandaga» sira — sira o‘xshamas edi. (“Shaytanat”)

O‘n qo‘lining ko‘rsatgich barmog‘iga tilla uzuk taqqan odamni birov «Chuvrindi» deb chaqirsa, kulgili holat yuz berar edi. (“Shaytanat”)

Keltirilgan misollarning birinchiisda «yosh» so‘zi ekspressiv — stilistik bo‘yoqsiz ko‘chma ma’no hosil qilgan. Bunda ob’ektni ifoda etish bilangina cheklangan. Unda sub’ektiv hech narsa o‘z ifodasini topmagan.

Ikkinchi misolimizda «tilla» so‘zi ekspressii - stilistik bo‘yoqsiz ko‘chma ma’no hosil qilgan. Bunda «tilla» so‘zi uzuk so‘zining sifatlovchisi vazifasida kelib, ifodalangan buyumning materialini ifoda etish bilan chegaralangan.

Ekspressiv - stilistik bo‘yoqli metaforalar natijasida hosil bo‘lgan ko‘chma ma’nolar tushuncha, ya’ni ob’ektni ifoda etish bilan unga nisbat sub’ektning munosabatini ham ifoda etadi.

Shirin tushlar adog‘iga yetib maet uyqudan uyg‘onish vaqti yetdi. (“Shaytanat”)

Ikki kishilik karavotda, umrining eng shirin damlari o‘tgan o‘rinda Noila sochlari parishon holda yotardi. (“Shaytanat”)

Keltirilgan misolardagi «shirin», «maet» soʻzlari kishi huzur qiladigan, orom oladigan, lazzatlanadigan, xush yoqadigan kabi maʼnolarpi ifodalab koʻchma maʼnoda kelyapti.

Idorada charos koʻzlari oʻynab turuvchi bir kiz ishlardi. (“Shaytanat”)

Qaldirgʻoch moʻylabli yigit Sharifga faqirga mensimay qaragan podsho kabi ilkis nazar tashlab qoʻydi. (“Shaytanat”)

Keltirilgan misolardagi «charos», «qaldirgʻoch» soʻzlari ot soʻz turkumiga oid boʻlib, bu soʻzlar «koʻz», hamda «moʻylov» soʻzlarining sifatlovchisi vazifasida kelyapti va shu bilan birga koʻchma maʼno ifodalab, emotsional -ekspressivlikka ega boʻlyapti.

Xullas, atoqli adib T.Malik asar badiiyligini taʼminlashning sintaktik usullaridan keng foydalanuvchi yʻziga xos uslub egasidir.

Bob boʻyicha qisqa xulosa

Ushbu kichik ilmiy tadqiqotimizda tilshunoslik va poetika masalalari, poetik birliklarning oʻziga xos xususiyatlari kabi bir qator masalalar koʻrib chiqildi.

Badiiy asar tili, unda qoʻllanuvchi tasvir va ifoda vositalarining lingvistik xususiyatlarini Tohir Malik asarlari asosida koʻrib chiqar ekanmiz, adibning soʻz qoʻllashdagi yuksak mahoratiga guvoh boʻldik.

Tohir Malik asarlaridagi oʻxshatishlar, sifatlashlar bilan tanishib shunday xulosaga keldik. Har bir badiiy tasvir vositasi kabi oʻxshatish, sifatlashdan foydalanganda ham, uning nima maqsadda ishlatilayotganligini, uning ham mantiqiy, xam poetik mazmuniga alohida eʼtibor berish lozim. Aks xolla u hech qanday estetik qimmatga ega boʻlmaydi.

Argo va jargonlar asteʼmol doirasi chegaralangan leksikaga kirsa ham uzbek tilini boiitishda ularning ahamiyati katta. Argo va jargonlar bizga asarni oʻkish davomida qahramonlarning qaysi gurux vakili ekanligini aniqlashimizga yordam berdi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida lingvopoetik yo'nalishdagi tadqiqot ishlarini olib borishga e'tibor yanada kuchaydi. Shu sababli til birliklarining semantik strukturasini tekshirish, uslubiy-semantik ma'nolarini chegaralash, bu ma'nolarning nutqda reallashuvida til vositalarining o'rnini belgilash kabi qator masalalar turli ilmiy-tekshirish ishlarining o'rganish ob'ektiga aylandi.

2. Matn nazariyasi, matn lingvistikasining umumiy shakllanishi va rivojida chex (Praga lingvistik t'garagi vakillari), nemis, fransuz, ingliz, Amerika, golland, rus, polyak va boshqa tilshunoslik maktablari vakillarining xizmatlari katta.

3. O'tgan asr 60-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab matn lingvistikasi tez sur'atlar bilan rivojlanish pallasiga kirdi. Unga b'lgan qiziqish ortishiga, umuman, matn lingvistikasining mustaqil fan sifatida e'tirof etilishiga asos b'lgan qoidalar ham umumlashtirildi.

4. Matnga berilgan xilma – xil ta'riflarning deyarli barchasida bog'lanishlilik va yaxlitlik belgisi y'z ifodasini topgan b'lib, tilshunoslar bir – biri bilan hech qanday aloqasi b'lmagan gaplarni bir butunlik tarzida birlashtirib b'ymasligini qayd etadilar.

5. Tilning kommunikativ vazifasi bilan birga estetik vazifasi haqida ham t'yxtalish lozim. Chunki, s'yzlovchi y'z fikrlarini qanday ifodalash, tinglovchiga aniq yetkazib berishni y'laydi, buning uchun y'ziga xos usul tanlaydi. Aynan shu jarayonda tilning estetik vazifasi yuzaga chiqa boshlaydi.

6. Badiiy matnda muallifning y'quvchi yoki kitobxonga estetik ta'sir qilish maqsadi birinchi planda tursa, nobadiiy matnda muallifning asosiy maqsadi y'quvchi yoki kitobxonga kommunikativ ta'sir qilishdan iborat b'yladi.

7. Badiiy matn ifoda imkoniyatlari va usullarining rang – barangligi, y'ziga xosligi va betakrorligi uning ta'sirchanligini ta'minlaydi. Matnning badiiyligini ta'minlashda ijodkor y'z badiiy niyatiga muvofiq ravishda ifoda imkoniyatlaridan istaganini tanlaydi. Bunday imkoniyat esa tilning barcha sathlarida sathlarda mavjud.

Matnning badiiyligini ta'minlovchi vositalarni ikkiga b'lish mumkin:

1. Lisoniy (lingvistik) vositalar.
2. Nolisoniy (ekstralingvistik) vositalar.

8. Badiiy matnning mazmunini idrok etish uchun uning leksikasi va grammatikasini bilishdan tashqari, badiiy matnning y'ziga xos lisoniy – poetik qonuniyatlarini ham bilish lozim. Ma'lum bir s'yz san'atkorining asarda g'oyaviy – estetik vazifani ta'minlash y'lidagi tilning boy imkoniyatlaridan foydalanishdagi individual mahorati lingvopoetik tahlilga qiziqishni oshiradi.

9. Kishilar o'rtasidagi aloqa – kommunikatsiya og'zaki nutqdan tashqari matnlar vositasida amalga oshar ekan, matn tuzuvchi tegishli badiiy yoki nobadiiy matn tipini tanlaydi.

10. Badiiy til bobida benazir ibrat maktabini yaratgan T.Malikday adib asarlarining tili hozirga qadar lingvopoetik nuqtai nazardan qisman o'rganilgan bo'lsa-da, bu hali adibning mahorati ochib berilganligini ko'rsatmaydi. Har qanday chinakam iste'dod egasi kabi T.Malik ham o'zbek tilining estetik vazifasini nechog'li mukammal va serjilo ekanligini isbotlab berdi.

11. Tohir Malik asarlarining badiiyligini oshirishda fonetik va fonografik vositalarning o'rnini beqiyos. Bu vositalar orqali yozuvchi asar qahramonlarining ichki his-tuyg'ularini, voqelikka bo'lgan sub'ektiv munosabatlarini ifodalashda keng foydalangan.

12. Yozuvchi tildagi ma'nodosh syzlarni qy'llashda ularning ma'no nozikliklarini nazardan qochirmagan holda y'ta did bilan tanlaydi. Ma'nodosh so'zlar orqali nafaqat matnning badiiyligi oshirilgan, balki so'zlovchining turli xil harakat va holatlariga, xususiyatlariga aniq va uslubiy baho berilgan.

13. O'zbek tilida erkalash, kichraytirish, hurmat, mensimaslik, kinoya, tantanavorlik, ulug'vorlikni anglatuvchi so'zlar hamda qo'shimcha holiga kelgan - **jon**, -**xon**, -**xo'r**, - **bachcha**, - **tilla** kabi elementlarni olgan sub'ektiv baho bildiruvchi otlar keng qo'llanadi. Ular orqali so'zlovchi u yoki bu shaxsga nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabatni ifodalay oladi. Bunday munosabat T.Malik asarlarida ham juda ko'plab uchraydi.

14. Tohir Malik asarlarida ta'sirchanlikni ta'minlashning sintaktik vositalari by'lgan sintaktik parallelizm, emotsional gap, ritorik sy'roq gap, inversiya, ellipsis, gradatsiya, antiteza, farqlash, y'xshatish kabi hodisalar yordamida ekspressivlik yuzaga keladi.

15. Tohir Malik asarlarini lingvistik jihatdan o'rganish badiiy matnni o'rganish yuzasidan olib borilayotgan har qanday ilmiy tadqiqot uchun qiziqarli va keng imkoniyatli asar sifatida xizmat qiladi. Yozuvchi o'quvchi hukmiga taqdim etayotgan o'nlab asarlar nafaqat adabiyot fani uchun, balki tilshunoslik uchun ham qiziqarli tahlil ob'ekti bo'lib qolishi, shubhasiz.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлининг фойдаланиши. -Тошкент. 1987.
3. Говердовский В. И. История понятия коннотации // Науч. докл. высш. шк. филол. науки. – 1979. - №2.;
4. Джалолова Л. Абдулла Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, 2007.
5. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент. 2007.
6. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. Монография. – Тошкент. 2008.
7. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА. – Тошкент. 2009.
8. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. - Тошкент, 2000.
9. Келдиёрова Г. Ўзбек бадиий нутқида антитеза (Э.Воҳидов шеърлари мисолида): Филол. фан. ном. ... дис. автореф. - Тошкент, 2000;
10. Мамадалиева М.А. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. -Тошкент. 1997.
11. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Тошкент. 1989;
12. Москальская О. И. Грамматика текста. – М.: Высшая школа, 1981.
13. Мусаев А. Ўзбек сўзлашув нутқи услубида гап бўлаклари тартиби. Филол. фан. номз. дисс. автореф.-Самарқанд, 2000.
14. Ревзина О. Г. О понятии коннотации // Языковая система и её развитие во времени и пространстве: Сборник научных статей к 80-летию профессора Клавдии Васильевны Горшковой. — М.: Изд-во МГУ, 2001.
15. Телия В. Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. –М. 1986.
16. Тоҳир Малик. Шайтанат. —Т.:Шарқ. 1—китоб, 1995
17. Тоҳир Малик. Шайтанат. —Т.: Шарқ. 2—китоб, 1995.
18. Тоҳир Малик. Шайтанат. —Т.: Шарқ. 3—китоб, 1997.
19. Тухсанов М. Микротекст и система выражения его когерентности в узбекской художественной речи: Автореф. дисс...к-та филол. наук – Тошкент. 1987.
20. Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, 2007.
21. Шомақсудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи. 1983.

22. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М. 1981.
23. Ўринбоев Б. Вопросы синтаксиса узбекской разговорной речи. Автореф.дисс. ... д-ра филол. наук . – Ташкент, 1974
24. Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро, 2000.
25. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Т. 1987.
26. Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Фил. фан. ном ...дисс. – Тошкент. 1993.
27. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент. 2001.